

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**SHAH RISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM  
ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HAMKORLIGIDA**

**“YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
12-IYUN, 2024-YIL.**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ  
“ПЕРСПЕКТИВЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА В НОВОМ  
УЗБЕКИСТАНЕ”**

**12 ИЮНЬ 2024 ГОДА**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE  
“PROSPECTS OF NATIONAL TOURISM IN THE NEW  
UZBEKISTAN”  
JUNE 12, 2024.**

**SHAHNISABZ – 2024**

## ANJUMAN TASHKILYI QO'MITASINING TARKIBI

- Abduraxmonov O. Toshkent davlat transport universiteti rektori, rais  
Shonazarov J. Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori v.v.b.,  
o'rinbosari
- Marasulova U. Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo'yicha prorektor, a'zo
- Shaumarov S. Toshkent davlat transport universiteti Ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo'yicha prorektor, a'zo
- Bekpulatov I. Qarshi davlat universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor, a'zo
- Gulamov A. Akademik faoliyat bo'yicha prorektor, iqtisod fanlari  
doktori (DSc), professor, a'zo
- Masharipov M. Iqtisodiyot fakulteti dekani, texnika fanlari doktori (DSc),  
professor, a'zo
- Raxmatov Z. "Korporativ boshqaruv" kafedrasini mudiri, Iqtisod fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent, a'zo
- Rahmanbaeva R. "Korporativ boshqaruv" kafedrasini professori, Iqtisod  
fanlari doktori, professor, a'zo
- Tuychiyev A. "Korporativ boshqaruv" kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo  
Tilayev E. Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar"  
fakulteti dekani, a'zo
- Qanoatova F. Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tarix" kafedrasini  
mudiri, a'zo
- Fayzullayev M. Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Geografiya"  
kafedrasini mudiri, a'zo
- Qo'qonboyeva D. Shahrisabz davlat pedagogika instituti Iqtidorli  
talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish  
bo'limi boshlig'i, a'zo

### **Shahrisabz davlat pedagogika institutining Kengash qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.**

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent U.Marasulovanning umumiy tahriri ostida

#### ***Taqrizchilar:***

***Tursunov I.E. – Iqtisod fanlari nomzodi, professor.***

***Ergashova Yu.A. – Tarix fanlari doktori, professor.***

To'plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'uldir.

## KIRISH SO‘ZI

Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng daromadli va dinamik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Rentabellik bo'yicha u neft qazib olish va qayta ishlashdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining qariyb 6 foizini, jahon investitsiyasining 7 foizini, jahon iste'mol xarajatlarining 11 foizini va barcha soliq tushumlarining 5 foizini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ko'plab mamlakatlarda turizm industriyasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, faol rivojlanmoqda.

O'zbekistonda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7400 madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar – “Xiva shahridagi Ichan-qal'a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Mamlakatimizda sohani jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilyapti. Hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanish, unga yondosh bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarini klaster usulida rivojlantirish hamda milliy turizm brendini rivojlantirish bo'yicha kompleks ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida mamlakatimizda mazkur sohada mutlaqo yangi yo'nalishlar tashkil qilinmoqda. Jumladan, respublikaning turizm salohiyati yuqori bo'lgan fuqarolar yig'inlariga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog'i” va “Turizm ovuli” maqomini berish va ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi. O'zbekiston Prezidenti tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda va bu jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. Sohani qo'llab-quvvatlashga doir 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi mamlakatimizda turizm turlarini diversifikatsiya qilish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi jozibadorligini oshirish yo'lida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda hozirda xalqaro miqyosda rivojlanib borayotgan yangi - milliy meros turizmini tashkil qilish va rivojlantirish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqimizning boy qadriyatlarini, hunarmandchiligini, urf-odat, an'analari, yaratuvchilik san'atini

jahon xalqlariga yetkazishda milliy turizmni rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi. Xalqaro turizm bozoriga kirish maqsadida mamlakatimizga milliy turizmni rivojlantirish, turistlarga milliy merosimizga xos noyob boyliklarni namoyish qilish va shu omillar evaziga xalqaro turizmni ham rivojlantirish vazifasi dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan.

Ushbu to'plamda O'zbekistonda ziyoratgoh va qadamjolar, turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish istiqbollari, milliy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy va moliyaviy omillari, milliy turizmni rivojlantirishda hamda jozibodorligini oshirishda marketingning o'rni, milliy turizm salohiyatini ko'tarishda samarali menejment va hamkorlikdagi boshqaruv, turizmni rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilishning dolzarb masalalari har tomonlama yoritilgan.

***Jamshid Shuhratovich Shonazarov,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori v.b.,  
falsafa fanlari nomzodi, dotsent.***

XALQARO TURIZMDA “KITOB GEOLOGIK MILLIY TABIAT  
BO‘GI”NING ŐRNI**JANKOBILOV ILXOMIDDIN XOLMURATOVICH,***Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, g.f.n,  
geografiya kafedrasi dotsenti,*E-mail: [jankobilovilhomidin@gmail.com](mailto:jankobilovilhomidin@gmail.com)**SATTOROVA SETORA QABUL QIZI ,***Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari  
yo‘nalishining 1-21 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada, Kitob geologik milliy tabiat bog‘ida geologik ochilmalarni o‘rganishning imkoniyatlari va yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, mazkur milliy tabiat bog‘i hududidagi mavjud geologik ochilmalaridan, xalqaro turizm sohasida oqilona foydalanish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Geologik yodgorliklar, stratigrafik yodgorliklar, paleontologiya yodgorliklar, ordovek, silur, devon

**Аннотация:** В статье освещаются возможности и пути изучения геологических открытий Китабского геологического национального природного парка. Также были обсуждены механизмы рационального использования существующих геологических открытий на территории этого национального природного парка в сфере международных туризма

**Ключевые слова:** Геологические памятники, памятники стратиграфии, памятники палеонтологии, ордовик, силур, девон

**Annotation:** The article highlights the possibilities and ways of studying the geological discoveries of the Kitab Geological National Natural Park. Mechanisms for the rational use of existing geological discoveries in the territory of this national natural park in the field of international tourism were also discussed

**Keywords:** Geological monuments, stratigraphic monuments, paleontological monuments, Ordovician, Silurian, Devonian

**Kirish.** Ma'lumki, keyingi vaqtlarda jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasi har bir mamlakatning xo'jalik tarmoqlari orasida yetakchi yo'nalishlarda biriga aylanib bormoqda. Chunki, turizm, har qanday davlatning milliy iqtisodiyotiga yuqori daromad keltiradigan soha hisoblanadi.

Shu bois dunyoning ko'plab davlatlarida ushbu iqtisodiyot tarmog'ini rivojlantirish, tegishli infratuzilmani jahon standartlari darajasiga yetkazish va turistlar oqimini oshirish bo'yicha o'ziga xos strategik rejalar ishlab chiqilgan

Jumladan, O‘zbekistonda ham tabiiy va tarixiy obidalarni saqlashga va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan, shuningdek, turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asrida “Vatanimiz zaminida saqlanib kelayotgan osori atiqalar, qimmatli obidalar, tarixiy ma’lumotlar, nodir yodgorliklar bizni jahon xalqlarining madaniyatlari bilan chambarchas bog‘laydigan turizm zanjirining oltin halqalaridir”<sup>1</sup> deb takidlab o‘tgan. Chunki, Kitob geologik qo‘riqxonasi ham o‘zida bundan 450-500 mln. yil ilgari yashagan tirik organizimlar to‘g‘risida ma’lumot bera oldigan geologik qatlamlarni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan nodir tabiat yodgorliklariga ega ekaligini ko‘rsatadi.

Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganda Kitob geologik milliy tabiat bog‘i-stratigrafiya-ma’lum bir geologik yoshga xos bo‘lgan tog‘ jinslarning ўрганиш va paleontologik-tosh qotgan uzoq vaqtlardan boshlab qatlamlarida hayvonlar yoki o‘simliklarning qoldiqlari saqlanib qolgan jinslar o‘rganishga qiziquvchi xorjiy sayyohlar uchun muhim ilmiy tadqiqot ba’zasi bo‘lib xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kitob geologik milliy tabiat bog‘i geologiyasi S.V.Yekshibarov, S.I Klunnikov, A.Mamatov, stratigrafiyasi A.И.Ким, Е.А.Елкин va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kitob geologik milliy tabiat bog‘ining turizm imkoniyatlarini takomillashtiri yo‘llarini aniqlashtirishda tarixiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalanilgan. Geologik qatlamlar to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirishning asosiy mexanizmlari, ularning ta’sir etish yullari o‘zaro solishtirilib, mantiqiy xulosalar chiqarilgan.

**Tahlil va natijalar.** Geologik tabiiy yodgorliklar uzoq geologik tarixiy taraqqiyotning mahsuli hisoblanlan o‘zining kelib chiqishi va muhofaza etilish xarakteriga ko‘ra bir necha turlarga ajratiladi:

- stratigrafik-ma’lum bir geologik yoshga xos bo‘lgan jinslarning chiqishi;
- paleontologik-tosh qotgan uzoq vaqtlardan boshlab qatlamlarida hayvonlar yoki o‘simliklarning qoldiqlari saqlanib qolgan jinslar;
- mineral - petrografik - noyob minerallar yer yuzasiga chiqqan jinslar;
- tektonik-tosh yoki o‘simliklarning bir qismi ya’ni yer qobig‘ida sodir bo‘ladigan jarayonlarning tabiatini aniqlash mumkin bo‘lgan landshaft yoki landshaft qismlari (skidlar, burmalar, tuz chiqishi, vulqonlar va boshqalar.);

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 b. (40)

-geomorfologik-landshaftlar yoki uning qismlari, shakli ma'lum geologik jarayonlar (g'orlar, g'orlar, tupurish, kanyonlar va boshqalar) ta'siri ostida shakllangan.);

-landshaft-geologik shakllanishlar, ayniqsa muhim madaniy va estetik ahamiyatga yega.

Kitob geologik milliy tabiat bog'i hududidagi geologik ochilmalar stratigrafik va paleontologik tabiiy yodgorliklarga tegishli

Stratigrafik yodgorliklar tabiatning geologik yodgorliklari orasida ahamiyati jihatidan birinchi o'rinni yegallaydi. Ular jinslarning tabaqalanishi ketma-ketligi, fazoviy munosabatlar, shuningdek ularning nisbiy yoshi, Yerning geologik tarixidagi voqealar ketma-ketligi haqida tasavvur beradi. Stratigrafik tadqiqotlar va geologik yodgorliklarning namunalari geologik xaritalarni tuzish va takomillashtirish, foydali qazilmalarni geologik qidirish va qidirish uchun ishlatiladi.

Kitob geologik milliy tabiat bog'i hududidagi paleozoy erasining quyi Ordovik davridan yuqori Devon davrigacha o'tgan vaqt oralig'ida qatlamlar uzluksiz yer yuzasiga chiqib yotadi, ular ichida o'sha davrda yashagan hayvon va o'simliklarning toshga qotgan qoldiqlari ko'plab uchraydi. Toshga aylangan bu qoldiqlar yuz million yillar uzoq tarixni so'ylovchi muhim geologik omil hisoblanadi.

Kitob geologik milliy tabiat bog'i hududidagi geologik ochilmalar bundan 300-420 million yillar oldin mavjud bo'lgan ulkan Tetis dengizi tagida paydo bo'lgan. Olimlarning fikricha, Tetis dengizining shakllanishi 500 million yil oldin boshlanib, bu joy yer yuzida Paleozoy davrining dengizi sifatida to'lqinlanib turgan (4,8).

Bu yerdagi 13 ta tabiiy ochilib, ichidagi qatlamlari ko'rinib turgan yonbag'irlarni o'rganish natijatida olimlar asta-sekin mazkur hududning geologik tarixini o'qib o'rganish uchun Shaxriomon – 1, Shaxriomon – 2, Qorasuv, Novobok, Obi-Safit, Zilzilbon, Xo'jaqo'rg'on, Noviko'shk soylarida yer yuzasiga chiqib turgan qirqimlar, ushbu joyning paleogeografik sharoitini va qatlamlarning yoshini to'liq aniqlash imkoniyatini beradi.

O'tkazilgan geologik izlanishlar shuni ko'rsatdiki, bu yerdagi eng keksa qatlamlar – Obikalon qatlamidagi terrigen yotqiziqlaridan va ular to'rtta pastki qatlamlarida joylashgan. Ularning zarrali tarkibi va tekstura-struktura belgilari asosida hamda nodir paleontologik qoldiqlari bo'yicha shunday xulosa chiqarildiki, ushbu terrigen materiallar, dengizning shelf zonasi chekka qismida yig'ilgan. Karadok asrining boshlanishida, ko'pchilik maydonlari har xil korallar, braxionidlar, trilobitlar, ignatinlilar, mshankalar, blastiodeyalar va pelitsipodlar



yashagan. Shu davrdagi dengizning markaziy Osiyo va G‘arbiy Yevropa dengiz basseynlari bilan kuchli aloqasi bo‘lgan.

Kechki karadokda yoki erta ashgillon vaqtida suv osti vulqonlari kuchayib, tektonik harakatlar aktivlashgan va bu yerda yangi a‘zolar migratsiyasi kuchaygan. Birbiriga yaqin joylashgan Shahriomon – 1 va Novobok soylari qatlamlarida dengiz basseynining sharoiti o‘zgarganini sezish mumkin.

Kitob geologik milliy tabiat bog‘i hududidagi mahalliy stratigrafik o‘lchovda yuqori Ordovik Obikanda, Chashmakalon va archalik qatlamlaridan tashkil topgan. Ulardagi har xil toshga aylangan korallar va chig‘anoqli a‘zolar o‘sha davrdagi shelfgacha saqlanib qolgan va hozirgi Xitoy, Qozog‘iston, qisman Sibir, Shimoliy Amerika va g‘arbiy Yevropa dengizlari bilan biogeografik aloqada bo‘lgan.

Shahriomon kesmalarida Old landoveriy (silur)da bo‘lib o‘tgan dengiz suvi bosishi (transgressiya) izlari yaxshi saqlanib qolgan. Mahalliy strategifik o‘lchovda o‘sha davrda Mingko‘char qatlamlari paydo bo‘lib, ular shelf zonasining o‘rta chuqurliklarida paydo bo‘ldi.

Mingko‘char vaqtdan keyin old Silur oxirgi vaqtigacha va kechki Silurning ludlov asirigacha qalin karbonatli tog‘ jinslari yig‘ila boshlagan, (asosan Janubiy Sumsar va arch svitalari qatlamlari taxlami shaklida), lekin karbonatli tog‘ jinslarida dolomitlashish jarayoni ko‘zga tashlanib, ushbu qatlamda oldingi jonivorlar to‘liq yo‘qola boshlagan. O‘sha vaqtda paydo bo‘layotgan kichik ko‘rfazlardagi qatlamlarining ba‘zi birovlarida hech qanday tirik mavjudotlarning qoldiqlari uchramaydi.

Silurning oxirida, prjidlol asarida ikkinchi dengiz bosib kelishi (transgressiyasi) bo‘lib o‘tgan. Kengaygan dengiz sathida har xil faunal sharoit yuzaga kelgan. Uning yangi turlari paydo bo‘lgan. Geologiya davrining bu qismi Obi-Safit soyi Qoratog‘ning shimoliy yonbag‘rida yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Strategifik jadvalda bu vaqt yuqori arg yoki kupruk qatlamlari taxlami shaklida ko‘rinadi. Litologiyaning dolomitlar, dog‘li yo‘l-yo‘l dolomitlarning ohaktoshlar tomon asta-sekin o‘zgarib borishi dengiz sharoitining keskin o‘zgarishidan bir-biri bilan almashib borganini ko‘rsatadi. Bu davrda faunaning tarkibiy qismi kengayib borgan va ayniqsa, silur-devon chegaralarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Devonning boshlanish davrida qo‘riqxonada maydonida kech silur davri transgressiyasi vaqtidagi sharoit saqlanib qolgan qo‘riqxonada maydonida loxkov va praga asrlari uchun xos massiv ohaktoshlarning qatlamlari 1000 metrga qadar qalinlikda yotadi va “modmon qatlamlar taxlami” deb ataladi. Geologlar A.I.Kim, M.V.Yerina, L.S.Anekina, A.I.Lesovoy olib borgan izlanishlar shuni ko‘rsatdi-ki, modmon taxlamidagi ohaktoshlar qatlamlari qo‘riqxonada maydonidan ancha uzoq cho‘zilib, shelfning markaziy qismida yig‘ilib qolgan.

Erta devonning em asri kelishi bilan qo‘riqxonada maydonida keskin o‘zgarish bo‘lib, cho‘kindilar yig‘ilishi ko‘rfaz shaklidan yonbag‘ir shakliga o‘ta boshladi. Sedimentatsiyaning bu ikki mustaqil shaklining to‘qnashishi natijasida tinch gidrodinamik sharoitda murakkab sayoz suvdagi donador va chuqur suvdagi loyqali karbonatli cho‘kindilar va har qaysisining o‘ziga xos sayoz va chuqur suvdagi mavjudotlar qoldiqlari yig‘ila boshladi (4,23).

Kitob geologik milliy tabiat bog‘i hududining yuqorida tariflangan rivojlanish tarixi, uning soylari yonbag‘irlaridagi 13 ta ochilib qolgan joylardagi massiv ohaktoshlar, dolomitlar bag‘rida saqlangan va har qaysisi o‘z davri asridagi qatlamlarda saqlanib qolgan, toshqotgan va o‘tgan davrda yashagan hayvon hamda o‘simliklar qoldiqlari asosida shakilangan. Kitob qo‘riqxonasining o‘ziga xosligi shundan iboratki, unda soylar yonbag‘irlarida o‘tgan davrlarda yashagan hayvon va o‘simliklar qoldiqlari to‘liq saqlanib qolgan va ular asosida ushbu maydon paleografik tarixini o‘qish imkoniyatini beradi.

Umumiy olganda ta'lim tizimidan farqli o‘laroq, mazkur milliy tabiat bog‘i asosida tarixiy geologik jarayonlar o‘rganish «kitoblar asosida» emas, balki to‘g‘ridan- to‘g‘ri «dala sharoitida» yoki «dala tadqiqotlari» natijalari asosida amalga oshiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi vaqtda sayyoramizning ko‘p joylarida qadim zamonlarda yashagan sodda hayvonlar qoldiqlari yig‘ilib qolgan toshli qatlamlar uchraydi. Ularning har qaysisi fan uchun o‘sha joydagi tirik hayotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi to‘g‘risida yangi ma’lumotlar beradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Birinchi, bu yerdagi 13 ta tabiiy ochilmalar, xorijiy sayyohlarga , Ordovik davridan yuqori Devon davrigacha bo‘lgan paleogeografik sharoitini va qatlamlarning yoshini to‘liq aniqlash imkoniyatini beradi.

Ikkinchi, mazkur etalonlar asosida olingan bilimlari o‘zlarining hududlarida Ordovik davridan yuqori Devon davrigacha o‘tgan vaqt oralig‘ida qatlamlar uzluksiz aniqlashda muhim geologik omil bo‘lib hisoblanadi.

Kitob geologik milliy tabiat bog‘iga xorijiy sayyohlarning tashrifini ko‘paytirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya qilamiz:

1) Kitob geologik milliy tabiat bog‘i idorasi joylashgan yerdan geologik ochilmalargacha bo‘lgan oraliqdagi masofa o‘zoq bo‘lganligini Novobak yo‘nalishida doimiy oqimga ega soylarning mavjud emasligini e‘tiborga olgan holda transport yordamida sayyohlikni turlarini amalga oshirish;

2) Xo‘jaqo‘rg‘on va Zinzilbon kesmi yo‘nalishida soylarda doimiy suv oqimi mavjudligini e‘tiborga olgan holda mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha otlar yordamida sayyohlik turlarini tashkil etish

3) Sayyohlik yo‘nalishlarida mavjud bo‘lgan tabiiy va geologik jarayonlar bilan yaqindan tanishtirib borish maqsadida hududni yaxshi o‘rgangan geologlarni jalb qilish lozim.

### ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi oily ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>.

3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun <https://lex.uz/docs/-5013007>

4. Ahmedova N., Xoshimov M., Shaymuratov T.. Kitob geologik qo‘riqxonasi, Samarqand, “Zarafshon”, 1997 y.

5. Заповедники СССР. Заповедники средней Азии и Казахстана. Москва, 1990 г.

6. Китабский государственный геологический заповедник. Рукопис, 1989 г.

7. Кашкадарьинская область. 1-том. Природа. Ташкент, 1959 г.

8. Qashqadaryo viloyat geografiyasi. Qarshi 1994

### АРТ-ТУРИЗМ - К ФОРМА КУЛЬТУРНО-ДОСУГОВОГО МЕРОПРИЯТИЯ, НАПРАВЛЕННОГО НА РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТЕРРИТОРИИ

**Даниленко А.П.**

к.п.н, доцент НИУ «БелГУ» Россия

**Кузьминов В.В.**

ст.пр. НИУ «БелГУ»,

член Союза художников Росси

В современном мире понятие креативности связывают не только со сферой искусства, но и с характеристикой хозяйствующих субъектов, а также с ресурсной базой и экономическим ростом территорий. Идеи креативной экономики стали очень популярными во многих странах мира, в том числе и в России. Под креативной экономикой понимается такой тип экономики, который основан на капитализации интеллектуальной собственности в различных областях деятельности человека (научной, научно-технической, культурной, творческой). Переход от традиционной модели оказания туристических услуг к новой модели, связанной с креативностью, обусловлен возросшей конкуренцией между туристическими направлениями за внимание и лояльность потребителей (туристов). Традиционные места показа и

достопримечательности, местная природа, архитектура и сувениры – далеко не полный список того, что может предложить гостям та или иная туристическая дестинация.

В «Концепции развития креативных индустрий и механизмов осуществления их государственной поддержки в крупных и крупнейших городских агломерациях до 2030 года» вводится понятие «локальных креативных индустрий», представляющих собой совокупность субъектов, деятельность которых направлена на создание рабочих мест, обустройство и формирование привлекательности, в том числе туристической, тех или иных территорий [2]. Современный туризм способствует реализации креативного потенциала той или иной территории. На практике многие дестинации занимаются формированием креативных брендов в целях повышения своей туристической привлекательности, что, в свою очередь, положительно влияет на инвестиционную и миграционную привлекательность. Креативный туризм связан не только с творчеством и обучением. Важную роль в нем также играет элемент общения и коммуникации, которые возникают в процессе совместного творчества людей, что может снижать различные барьеры, например языковые. Важным принципом креативного туризма является интерактивность. Людям недостаточно лишь пассивного потребления, они хотят узнавать что-то новое, приобретать новые навыки, развиваться, получать уникальные впечатления и опыт. Можно утверждать, что креативными являются как те, кто что-то производит и создает, так и те, кто это потребляет в соответствии с определенным стилем жизни. Креативный туризм можно определить через предложение креативных туристических продуктов, которые его формируют.

Креативный туризм – такой вид туризма, когда туристам предлагаются нестандартные туристические продукты и услуги, в результате потребления которых удовлетворяются потребности в творческом саморазвитии и самореализации туристов, происходит погружение в местную культуру, интеграция с местным сообществом, формируются новые навыки, уникальный опыт и впечатления. Креативность места может заключаться не только в наличии тех или иных креативных индустрий, она также может проявляться в особенностях повседневной и самой обычной жизни этого места. Необходимо осознать эти особенности и то, чем данное место может быть интересно для внешних аудиторий. Важно, что новые технологии и цифровизация способствуют максимальной реализации креативной составляющей туристического предложения современных территорий. Можно предположить, что креативный туризм помогает сохранить нематериальное наследие туристических дестинаций, в каком-то смысле

возрождая традиционные ремесла и навыки и делая их привлекательными для молодого поколения. Каждая дестинация должна самостоятельно разрабатывать и формировать свои креативные направления развития и соответствующую креативную среду. Креативный туризм может быть рассмотрен в качестве основы для формирования стратегии развития территории. Вместе с тем эффективное развитие креативного туризма, как и туризма в целом, возможно только при условии активной государственной поддержки [1].

Креативные туристические продукты – совокупность товаров и услуг, которые отличаются новизной и нестандартным подходом и способствуют удовлетворению высших потребностей туристов во время их путешествий, таких как потребности в саморазвитии и самореализации, в отличие от традиционных туристических продуктов. Большой потенциал для развития креативного туризма имеется у музеев и учреждений культуры. Креативно-интерактивная составляющая современного музея может быть основана на связи с едой (например, с национальной кухней), мастер-классах по местным ремеслам, на этнических традициях (например, фестивали и праздники), изучении местного языка, интерактивных детских программах, необычных подходах к истории места и др. Важно отметить, что креативность в туризме, по сути, не имеет границ, поскольку креативность как ресурс неисчерпаема. Кроме того, креативный туризм не наносит значительного вреда экологии, так как основан на поддержке нематериальных ценностей. На практике такой вид туризма часто переплетается с сельским, гастрономическим и другими видами туризма. Для малых территорий креативный туризм может стать перспективной траекторией развития, где отсутствие материальных объектов туристического показа может компенсироваться, например, формированием легенд о месте пребывания, созданием оригинальных фестивалей, выставок или мастер-классов. Современный туризм (в том числе и креативный туризм) тесно связан не только с концепцией креативной экономики, но и с идеями экономики впечатлений. Экономика впечатлений представляет собой такой подход к производству и продвижению товаров и услуг на рынке, который направлен не столько на удовлетворение той или иной потребности, сколько на создание позитивного впечатления у покупателя от всех стадий процесса приобретения. Предполагается, что современный потребитель готов больше платить за свои эмоции, чем за простые продукты и услуги. Такое изменение восприятия потребительской ценности в постиндустриальном обществе наблюдается во многих сферах, но больше всего – в сфере туризма. Как уже было сказано, современные туристы больше не хотят быть пассивными наблюдателями, они стремятся «вжиться» в местную культуру и

повседневную жизнь, приобщиться к живым традициям и обычаям для того, чтобы получить новые впечатления и опыт. Современный туризм является одной из самых рентабельных отраслей экономики. Все больше регионов РФ заявляют о туризме как о приоритетном направлении развития, что усиливает конкуренцию между ними. Традиционные туристические ресурсы, безусловно, продолжают играть большую роль в этом процессе, но в то же время уже не гарантируют победы в этой конкурентной борьбе. Конкурентное преимущество на современном рынке способны обеспечить новые туристические продукты и услуги, основанные не только на физических, но и на нематериальных туристических ресурсах, соответствующих актуальным трендам путешествий и новым запросам туристов. Представляется, что в нынешних условиях только креативные идеи могут решить проблемы ограниченных ресурсов и высокой конкуренции.

Несколько лет подряд в Белгороде проходит фестиваль «Белгород в цвету». Мероприятие красочное, интересное и по настоящему знаковое для всех жителей Белгородчины. Фестиваль - разноплановое мероприятие, которое под одной цветочной темой объединяет огромное количество проектов: от познавательных выставок с красочными инсталляциями до выступления именитых музыкальных коллективов. Празднования проходят несколько дней. Обычно, местами локаций выступают парковые зоны города, центральная соборная площадь, Белгородский «Арбат» и набережная.

Что интересного можно найти на мероприятии?

#### **Ландшафтный дизайн и композиции из живых цветов**

За три года проведения «Белгород в цвету» посетители привыкли к разнообразному креативу участников. Этой осенью тоже есть чему удивиться! Ретро автомобили в виде клумб и «мольбертов» для росписи. Фонтан с декором а-ля летящие одуванчики. Огромные горшки-клумбы и выющиеся «занавески» из растений...

#### **Мастер-классы для детей разного возраста тематические инсталляции из природных материалов**

Наибольшую часть выставочной экспозиции фестиваля занимают зоны для фотосессий в виде фигур людей, животных, сказочных персонажей, объектов труда, а также овощей и фруктов (мероприятие проводится в конце огородного сезона, а Белгородская область богата на великие сельскохозяйственные свершения).

#### **Ярмарки-продажи товаров из белгородчины Огромное количество мест для фотосессий**

Фестиваль «Белгород в цвету» рекомендую к посещению не только жителям города, но и приезжим в регион туристам. Достойное, максимально позитивное, яркое и на долго запоминающееся мероприятие.

Творческий туризм имеет много общего с событийным туризмом. Если поездки на крупные международные выставочные мероприятия, такие как Венецианская биеннале, Документ в Касселе, Лионская биеннале современного искусства, Стамбульская биеннале и т.д. давно стали привлекательными и привычными художественными маршрутами для туристов, то идея российского арт-туризма, в частности привлекательность Белгорода как город арт-туризма, еще не сформирована.

## ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ВА УСМОНЛИ ТУРКЛАР ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАР

**Худойкулов Тўлқин Дўстбобоевич**  
Шахрисабз давлат педагогика институти  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор

Ўрта Осиё худудида минг йилликлар давомида ҳукм суриб келган давлатчилик тизими мавжуд бўлганлиги, давлатчиликнинг ўзига хос барча хусусиятлари, шу жумладан ташқи сиёсати, дипломатик алоқалари, элчиликлар борди-келдилари узлуксиз давом этиб келганлиги ҳозирги вақтда ҳам илмий тадқиқотлардаги бош мавзу ҳисобланади. Давлатлараро муносабатларни мустақамлаш, ҳукмдорларнинг ўзаро мулоқотларини барқарор этиш билан ишонч ҳосил қилиш, мамлакатларнинг ички ва ташқи ҳолатидан хабардор бўлиш, икки ўртада ҳамжиҳатлик ўрнатиш орқали фуқароларнинг тинчлиги ва осойишталигини барқарор этиш ва бошқа хил муаммоларни бартараф қилиш элчилик алоқаларининг асосий мақсадлари ҳисобланган. Ушбу мақсадларни амалга ошириш учун, ўз ҳукуматининг сиёсати ва ниятларини тушунтириш ва унга ишонтира олиш учун элчиларнинг шахсиятига катта аҳамият берилган ва улар энг етук инсонлар орасидан танланганлар. Даврнинг доно ва зукко зотлари ҳукмдорлар учун бу борада қўлланмалар ёзиб, чет элларга юборилиши мумкин бўлган элчиларни танлаш, тайёрлаш ва уларнинг фаолияти тамойиллари ва меъёрларини белгилаб берганлар. Бу ҳақида юқорида тўхтаб ўтилди албатта.

Манбалардан шу нарса маълум бўладики, Ўрта Осиё давлатларида элчиларни қабул қилиш тартиб-қоидалари қадим замонларданок ҳукмдорларнинг диққат-эътиборида бўлиб келган ва бу масалага ҳар вақт жиддий муносабатда бўлинган. Дипломатиямиз тарихига оид қўлаб

асарларда унинг йўл-йўриқлари атрофлича таҳлил этилган. Жумладан, Амир Темур саройида чет эллик элчиларни қабул қилиш маросими элчилар чегарадан ўтиб, унинг мулклари худудига қадам қўйишларидан бошланар эди дейиш мумкин[14]. Мамлакат бўйлаб шундай тартиб ўрнатилган эдики, элчилар йўлидаги шаҳар ва қишлоқларнинг ҳокимлари уларни кутиб олар, аҳоли уйларидан гиламлар чиқариб жой солар, дастурхон ёзиб меҳмоннавазлик кўрсатар, тунаш учун муносиб жой берар ва йўлни давом эттириш учун от-улов билан таъминлашар эди. Бу каби дипломатик маросимларда айtilган ҳар бир сўз ва босилган ҳар бир қадам ўзига хос маънога эга бўлиб, шу ўлканинг миллий қадриятлари, урф-одатлари ва ички ҳамда ташқи сиёсатини намойиш этиш учун фойдаланилган.

Қўқон хонлиги ва Усманий турклар ўртасида элчилик алоқалари бўйича манбалар таҳлил этилганда айрим эътирозли фикрлар ҳам мавжуд эканлиги аниқланади. Жумладан, айрим турк тарихчилари Қўқон хонлиги билан Усманийлар алоқалари ҳақидаги ҳужжатларни унчалик мазмунга эга эмас деб билишади. Чунки улар асосан элчиларнинг империя худудида бўлганлиги ҳақидаги молиявий ҳужжатлар деб ҳисоблашади. Шунингдек, Истанбулга келган қўқонликларнинг аксарияти турк (усманийча) тилини билишмаган. Бу Марказий Осиёда расмий иш юритиш тиллари форс ва чағатой туркийлари бўлганлиги билан боғлиқ бўлган. Шунинг учун элчилар ва Усмонли амалдорлари ўртасидаги алоқа Истанбулда доимий яшовчи минтақадан жалб қилинган таржимон ва маслаҳатчилар орқали амалга оширилган. Анъанага кўра, бундай хизматларни Истанбулдаги бир нечта "ўзбек" (Истамбулда яшовчи) шайхлари амалга оширган. Улар элчилар билан суҳбат ўтказиб, кейин ҳукмдор мактубининг таржимаси ва олий давлат амалдорлари учун махсус эслатмалар тузиб, (унда фақат суҳбатнинг энг муҳим мавзулари кўрсатилган) Султонга етказган. Тадқиқотчиларнинг фикрича, Қўқон хонлигининг усманийлар билан биринчи алоқаси 1820 йилда Истанбулдаги Қўқон элчихонасида амалга оширилган. Усманийлар архивида бу элчихонанинг Истанбулда бўлгани ҳақидаги бир қанча ҳужжатлар сақланиб қолган [3]. Демак ушбу маълумотлардан шундай хулоса қилиш мумкинки, ҳар қандай кичик ёки молиявий ҳужжат бўладими ушбу маълумотлар иккала давлат учун ҳам муҳим манба ҳисобланади.

Яна бир Қўқоншунос олим Ш.Махмудовнинг тадқиқотларида Усмонли архиви фондидаги Қўқон хонлиги билан Усмонли империяси ўзаро алоқаларига доир ҳужжатларни шартли равишда бир неча гурларга бўлиб имлий таҳлил қилганлигини кўришимиз мумкин. Хусусан, биринчи гуруҳда Қўқон хонлари томонидан Турк султонларига юборилган мактублар ва бу мактубларнинг таржима нусхалари борлиги айтилади. Улар Турк султонлари



томонидан жавоб мактублари ва дипломатик миссияларга доир ҳужжатлар ҳисобланади. Ушбу гуруҳга мансуб ҳужжатларнинг аксариятини Қўқон хонлигидан юборилган мактублар, уларнинг усмонли туркчага таржима қилинган нусхалари ва бу мактубларга Усмонли давлати девонидаги масъул давлат арбобларининг муносабатлари қайд этилган ҳужжатларни ташкил этади. Иккинчи гуруҳга Қўқон хонлигидан борган элчиларнинг Усмонли давлати девони томонидан ижтимоий-иқтисодий таъминланишига доир ҳужжатлар киради. Усмонли архиви фондидаги Қўқон хонлиги билан боғлиқ ҳужжатларнинг ҳажм жиҳатидан ҳам энг кўпроғини мазкур гуруҳга мансуб ҳужжатлар ташкил этади[7]. Хулоса ўрнида таъкидланади-ки, Усманийлар архиви ҳужжатларидан маълум бўлишича, Қўқон хонлигидан Истамбулга 18 марта элчилик юборилган бўлиб, шундан 12 таси махсус дипломатик миссия билан, қолганлари эса ҳаж зиёратига Истамбул орқали боришлари билан боғлиқ. Қўқон хонлигидан Истамбулга юборилган барча элчиларнинг шахслари аниқ бўлиб, уларнинг 13 таси диний уламолар ва сўфийлик тариқати пешволаридан иборат бўлган. Бу эса Қўқон хонлиги ҳукмдорлари томонидан хорижий давлатлар билан олиб борган дипломатик алоқаларда диний уламолардан элчи сифатида унумли фойдаланилганлиги ҳамда эришилган натижаларни тадқиқ этишда муҳим ўрин тутади.

Тарихдан маълумки, XVI-XVIII асрлар давомида ҳам Марказий Осиё давлатларининг чет эллар билан дипломатик муносабатлари ва элчилик алоқалари тўхтаб қолмаган. Мовароуннаҳр ҳукмдорлари мамлакатда ободонлик ва осудаликни сақлаш, давлатлараро муносабатлардаги муаммоларни ҳамжиҳатликда бартараф қилиш, у ёки бу масалага бир-бирларининг нуқтаи назарини аниқлаб олиш, ўз юртларидаги аҳволдан ҳабардор этиш ва дўстлик ришталарини мустаҳкамлаш масалаларини элчилар воситасида амалга оширар эдилар. Элчилар орқали юборилган мактублар ота-боболардан мерос қолган дўстликни сақлаш мамлакат тинчлиги ва аҳолининг фаровонлигини таъминловчи ва исломнинг қудратини оширувчи омил деб баҳоланар ва бир-бирларини шунга даъват этар эдилар. Бироқ давлатлараро муносабатларнинг характери, даврнинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий омиллари таъсирида элчиларни қабул қилиш маросимларининг қоида ва тартибларига ҳам янгиликлар киритила борган. Жумладан, Усманийлар амалдорларидан вазир Сайид Али Пошо элчи сўрови натижалари тўғрисида султонга мурожаат қилиб, қуйидаги қизиқ бир эслатмани ёзиб кетган. Унда “Қипчоқ чўллари ва Фарғона ҳукмдори” Сайид Умархондан Ҳожи Сайид Муҳаммад Қурбон афанди исмли элчи келганлиги хабар қилади. Бу элчи Усмонли ҳужжатларида Қурбон бек сифатида ҳам учрайди. Муҳаммад Ҳакимхоннинг

тарихий асарида у икки марта тилга олинади. Ҳар икки ҳолатда ҳам у хонга султондан совғалар тақдим этганлиги бўйича маълумотлар мавжуд. Биринчи марта Хўжантда, иккинчи марта Тўра Қўрғонда ва бу жараён ҳар сафар Хива элчихонаси вакили ҳамроҳлигида содир бўлган. У бир неча мартаба элчилик вазифасида бўлиб, хусусан, 1851 йилда Истанбул, 1828 йилда эса Петербургда бўлган. Шунингдек, у рус манбаларида Ҳожи Мир Қурбон Мамат Қосимов номи билан ҳам тилга олинади.

Юқориди таъкидлаб ўтилганидек, “... алоқалари ҳақидаги ҳужжатларни унчалик мазмунга эга эмас, ... империя ҳудудида бўлганлиги ҳақидаги молиявий ҳужжатлардир” деган фикрлар унчалик ҳам тўғри эмаслигини Вазирнинг ушбу маълумоларидан ҳам билиш мумкин. Унинг ёзишича Қўқон хонлигининг давлат чегаралари ғарбда Фарғона водийсини ўз ичига олади, шарқда Қошғар, жанубда эса Кеш билан чегарадош бўлган. Шимолда хонликнинг ҳудуди Қипчоқ даштлари ва Туркистон шаҳри билан чегарадош эди. Демак, бу ерда минтақанинг географик маълумотлари тақдим этилган.

Элчилик алоқалари Қўқон хони Умархон даврида анча фаоллашганлигини кўришимиз мумкин. Ҳаттоки Умархоннинг Усманийларга юборган элчиларидан бири Ҳамадондаги зодагон оилаларидан бири эканлиги айтилади. У Қурбон афанди бўлиб Истанбулга элчи қилиб юборилган. Қурбон афанди хон ёзишмаларини етказишдан ташқари Султонга оғзаки хабарни ҳам етказиши керак бўлган. Сир тутилган хабарни хон хатга ёзишни истамаган. Маҳфийлик сабабини Султон вазирининг хон элчисига таяниб берган маълумотларидан ҳам кўриш мумкин. Жумладан, Қўқон хони кўшинида 20 минг жангчи бўлгани, у гўёки “кофир хитойлар” устидан бир неча бор ғалаба қозониб, мусулмон қалъаларини улардан озод қилгани, кўшинлари билан муқаддас уруш олиб бориш имкониятини қўлдан бой бермаганини таъкидлайди. Шунингдек, хон ўз мулкига туташ жойда Қизилёр истехкомини барпо этиб, русларга қарши курашаётганини маълум қилади. Хон Усмонли империясига бўйсунгани ва Султондан мукофот сифатида қилич олишни хоҳлайди. Қурбон афанди қайтгандан сўнг, хон ўз қариндоши Қосимбейни доимий дипломатик алоқаларни сақлаб қолиш учун Истанбулга жўнатмоқчи эканлигини эълон қилган[2].

Қўқон хони Муҳаммадалихон (1822-1842) даврида ҳам Усманийлар билан муносабатлар давлат сиёсати даражасида бўлган. Хусусан, Муҳаммадалихон 1837 йилнинг баҳорида Истанбулга элчиси Зоҳид Хўжани юбориб, Усманийлардан кўшинни тактик жиҳатдан тайёрлаш учун ҳарбий мутахассис ва ҳарбий-ўқув асбоб ускуналар сўрайди[8]. Қўқон хони элчисини Усманийлар султони маслаҳатчиларидан бири диққат билан тинглайди. Улар элчига Ўрта Осиёдаги сиёсий аҳволга доир турли

саволларни берадилар. Элчи Зоҳид Хўжа Россиянинг Қўқон хонлиги чегара ҳудудидан қалъа қураётганлигини маълум қилади. Шунингдек, элчи хонлик қўшинида пиёдалар камчиликни ташкил қилиши тўғрисида ҳам маълумот беради. Элчи хонлик қўшинларини янада такомиллаштириш учун Муҳаммадалихоннинг қуйидаги илтимосларини баён қилади: “Хонимиз султонга қуйидаги илтимосларини билдиришимни буюрди: Икки пиёда, икки отлик ва икки тўпчи қўшинга таълим берувчи мутахассис, агар бунинг имкони бўлмаса, пиёда, тўпчи отлик аскарларга таълим беришга доир китобларни беришларингизни илтимос қилди”[10].

Муҳаммадалихон даврида яшаган давлат арбоби, тарихчи олим ва саёҳатчи Муҳаммад Ҳакимхон Қора денгиз орқали Истанбулга боради. У Синоп, Қайсари, Ангор(Анқара), Лакатия каби шаҳарларда ҳам бўлади[16].

Қўқон хони Худоёрхон 1846 йилнинг ноябрь ойида Ҳожи Рўзибек бошчилигидаги элчиларини Истанбулга юборади. Элчилар хоннинг қуйидаги мактубини топширишади: «Худудимизда олтин, кумуш, фируза, мис ва бошқа турли табиий бойликлар мавжуддир. Бу ишларнинг устаси бўлмагани учун сизларни безовта қилишга мажбур бўлдик. Биродарим марҳум Муҳаммад Алихонга қилган ёрдамларингиз бизга маълумдир. Ер ости бойликларини қазиб олишимизга ёрдам берадиган уста юборишингизни илтимос қиламиз»[11].

Давлатлар аро дипломатик муносабатлар Қўқон хонлигида қўшни давлат Бухоро хонлиги дипломатияси асосида шаклланиб борган дейиш мумкин. Хусусан, XVI-XVIII асрларда Бухоро амири саройида чет эл элчиларини қабул қилиш маросимининг қоидалари ёзма рисолада белгиланган бўлиб, унга кўра элчини кутиб олиш шиғовулнинг вазифасига кирган. Элчи ҳақида ҳам, уни юборган зот ҳақида ҳам, уларнинг совға-саломлари ва арзу илтимослари ҳақида ҳам шиғовул маълумот тўплаган. Шиғовул ўз вазифасига масъулият билан ёндошиб, оддий ва кичик деталларга ҳам катта эътибор берган. Масалан, шиғовул элчини юборган зот ҳақида арз қилиб бўлгач, бир неча қадам орқага чекиниб, кейин элчининг ўзи ҳақида, унинг “кўриниш”га илтимослари ва тортиқлари борасида баёнот берган. Бу қоида элчи билан унинг ҳукмдори ўртасидаги ораликни кўрсатиш учун қўлланилган бўлиши мумкин. Шунингдек, элчини ўз давлатидаги мавқеига кўра уни юксак мақомга эга бўлган сарой мансабдорларидан икки киши хон қошига саломга олиб келганлар. Ҳукмдор унинг елкасига қўлини теккизгач, яна ўша мансабдорлар уни жойига олиб бориб қўйганлар. Элчини қаерга ўтқазишни амир буюрган. Ундан сўрамагунларича гап бошламаган[14]. Қўқон хонлигида ҳам элчини кутиб олиш жараёнларига Шиғовул масъул бўлиб, мисол тариқасида тарихчи ва шу билан бирга хонликнинг шиғовули

мансабида бўлган Муҳаммад Юнус Тоибни эслаб ўтиш мумкин. Ш.Воҳидов ҳам ўз рисоласида Шиғовул мансабини таҳлили қилиб, Шиғовул - элчилар ва чопарларни хон хузурига бошлаб кирувчи шахс эканлигини билдиради. Манбалар маълумотига қараганда, шиғовул мансабида бўлган зотнинг вазифалари жуда кенг экан. Муҳаммад Юнус мирзабоши шиғовуллик мансабини Алиқули амирлашкар томонидан олиши воқеасини қуйидагича баён қилади: “Бир куни саломга йиғилган вақтида (Ёқуббек) Бадавлат кўлида бир кимхоб тунни кийдуруб, тош уққоған тилло асони “сиз шиғовул” деб кўлимга топшурди. Мирза Аҳмад кушбеги тўнни Аҳрорхон тўрага кийдуруб, яна бир тилло асони «сиз удайчи» деб ани кўлига топшурди”[4].

Умуман олганда хонликлар ўртасидаги элчи алмашинувига доир маълумотлар ўз навбатида, дипломатик этикет ва элчилик хизматининг ўзига хос тартиб-қоидалари борасида ҳам тасаввур беради. Ҳар икки тараф элчиларни кутиб олар экан, дилкушо жойга ёки мусаффо саройга жойлаштириб, иззату эҳтиромларини бажо келтирганликлари ҳамда бир неча муддат «элчихонаи олий»да «таъзиму икром била меҳмондорлиғ» қилгандан сўнг кетишга рухсат берилган. Элчиларни қабул қилиш борасида эса, «кўрунуши олий»га чорлаб, кўпдан-кўп «навозишлар кўрсатилган»лиги, ҳар икки ҳукмдор бир-бирларига подшоҳона ҳадялар билан бирга мактуб бериб, ўз тарафидан элчи кўшиб юборганликларини кўриш мумкин. Элчилар аксарият ҳолларда бирор хушхабарни «суюнчилатиш» учун юборилган бўлиб, кўп ҳолларда юборилган элчиликнинг мақсад ва вазифалари манбада аниқ кўрсатилмаган. «Муҳаббатнома» ёки «муволафатнома» бериб юборилгани ҳақидаги маълумотлардан кўриш мумкин бўладиги, бу элчиликлар ўртадаги дўстлик алоқаларини мустаҳкамлаш мақсадида ва икки томоннинг бир-бирига нисбатан яхши кўшничилик муносабатларида эканлигини билдириб туриш учун деярли мунтазам равишда алмашилиб турилган[13].

Шунингдек, Қўқон хонлиги Россия, қозоқ даштлари, Қашқар, Хитой, Афғонистон, Эрон, Ҳиндистон, араб мамлакатлари, Туркия ва бошқа давлатлар билан бевосита ёки билвосита савдо алоқаларини амалга оширганлиги бўйича айрим маълумотлар тадқиқотчи олим З.Мадраҳимовнинг асарларида батафсил келтирилади. Унга кўра хонлик савдогарлари Усманийлар давлати (Туркия) ва араб шаҳарларига савдо мақсадида бориб турганлар. Улар араб мамлакатлари ва Туркия шаҳарлари билан ҳам асосан Бухоро, Афғонистон ёки Хуросон, Эрон ҳудудларидан ўтган карвон йўллари орқали савдо алоқаларини амалга оширганлар. Қўқон хонлигидан араб мамлакатлари ва Усманийлар давлати шаҳарларига ипак ва ярим ипак матолар, маҳаллий ҳунармандлар томонидан тайёрланган

маҳсулотлар ва Хитой моллари олиб борилган. Бу мамлакатларга хонлик савдогарларининг ҳар бир сафари бир неча ойлаб, йиллаб давом этган. Ўзтиборлиси шуки тадқиқотчи А.Вамберининг “Марказий Осиё бўйлаб саёҳат” номли асарига таяниб қўқонлик савдогарлар (ёки зиёратчилдар) ҳар йили ҳаж мавсумида Макка ва Мадина зиёратига отланган ҳожилар ҳам икки ҳудуд ўртасидаги савдо алоқаларини амалга оширишда муҳим аҳамият касб этганлигини мисол қилиб келтиради. Жумладан XIX аср 60-йилларида Ўрта Осиёда бўлган А.Вамбери маълумотига кўра, Ҳиротга у билан "50-60 атрофидаги қўқонлик ҳожилар қарийб 40 дюжина ипак рўмол, 2 мингга яқин пичок, 30 бўлак Наманган шойиси, кўп сонли Қўқон дўппилари ва бошқа молларни сотиш учун Арабистонга олиб кетганлар[1].

Макка зиёратига бораётган қўқонлик зиёратчиларнинг бир қисми Россия орқали, яъни Оренбург – Астрахан – Истанбул йуналишидан фойдаланишни авзал кўрганлар. Улар ҳаж зиёратига бориш жараёнида ўзлари билан маҳаллий молларни олиб борганлар ҳамда сафар давомида хорижий маҳсулотларга айирбошлаганлар. Айрим маълумотларга таяниб таҳлил қиладиган бўлсак, ўз даврида машҳур бўлган Марғилон ипак газламалари, рўмоллар, кўрпа ва бошқа Қўқон хонлиги маҳсулотлари Туркия бозорларида ўз ҳаридорига эга бўлган ва хонлик савдогарлари томонидан кўплаб олиб борилган[9]. Хусусан, З.Мадрахимовнинг тадқиқотлари ва архив маълумотларида келтирилишича, 1871 йил апрель ойида андижонлик савдогарлар Бобоназар Сўфи Чинибеков ва Ҳожи Ҳабибулло Мулла Ҳайдарбековлар Қўқон хонлигидан Россия шаҳарлари орқали Истанбулга 24 рубллик 40 дона ипак рўмол, 40 рубллик 600 парча чит, 40 рубллик 8 фунт хом ипак, жами: 104 рубллик, андижонлик савдогар Ҳожи Муҳаммад Амин Хўжа Абдулло Ҳожиев 40 рўбллик 8 фунт хом ипак, қўқонлик савдогар Мулла Абдумажид Нодир Муҳамедов 138 рубллик 180 дона ипак рўмол, 90 рубллик 180 дона оддий рўмол, 30 рубллик 10 жуфт беқасам, 40 рубллик 10 жуфт канаус, жами: 308 рубллик, қўқонлик савдогар Мулла Неъматулла Мулла Абдурахмонов 138 рубллик 180 дона ипак рўмол, 140 рубллик 280 дона оддий рўмол, 42 рубллик ипак матолар, жами: 320 рубллик, андижонлик савдогар Хожамонбеков эса 200 рубллик 100 дона ипак рўмол, 300 рубллик 1 пуд 20 фунт хом ипак, жами 500 рубллик мол олиб кетганлар[5].

Шунингдек, 1871 йил май ойида Тошкент ва Россия шаҳарлари орқали Истанбулга қўқонлик савдогар Муҳаммад Ёқуб 148 рубллик 300 дона ипак рўмол, 8 рубллик 4 пуд дурия ипак матоси, 400 рубллик 2 пуд тафил ипаги, жами: 566 рубллик, қўқонлик савдогар Мулла Йўлдош Мулла Курбашев 160 рубллик 320 дона ипак рўмол, қўқонлик савдогар Ҳожи Муҳаммад Норбурибоев 20 рубллик канаус ва 137 рубллик 140 та ипак рўмол, жами: 160

**Turizm** fransuzcha *our* — sayr, sayohat) sayyohlik - sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri demakdir. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qilib turgan yashash joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda boshqa bir joyga yoki mamlakatga haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketish ya‘ni sayohat qilishi tushuniladi. Turizm faoliyatining tarixi nazar tashlaganimizda uning asl paydo bo‘lish vaqti XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab turizmning paydo bo‘lishi 1815 yilda uyishgan bir guruh sayyohlarning Angliyadan Fransiyaga sayohat qilishidan boshlangan deish mumkin. Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo‘l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so‘ng u o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo‘natdi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi turizm sohasida ham bir nechta asosiy mazmun kasb etuvchi tushunchalar bor biz har gal ularga duch kelganimizda turizm sohasining ajoyibotlarini his eta olamiz.

**Turizm** - jismoniy shaxsning vaqtincha yashash mamlakatidagi joyidan boshqa bir joyga manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda jo‘nab ketishi ya‘ni sayohat qilishi tushuniladi.

**Turist** - vaqtincha yashash mamlakatidagi joyidan manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan **shug‘ullanmagan holda** vaqtincha **24 soatdan** ketma-ket **12 oygacha bo‘lgan davr mobaynida** yoki vaqtincha bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs.

**Gid (gid-tarjimon)** - axborotga oid va tashkiliy xizmatlar ko‘rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha yashash mamlakatidan olib chiquvchi turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko‘rgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxs.

Turizm sohasi bo‘yicha Sharqiy davlatlar tarxi ham boy tarixiy manbalarga boy deb bemalol aytishimiz mumkin. Jumladan Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur o‘z davrida fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo‘lgan va ular o‘z elchilarini boshqa davlatlarga tez-tez yuborib turgan. 1403-yili Parijga elchi bo‘lib kelgan Ispaniyalik Klavixoning «Buyuk Temurning hayoti va faoliyati» nomli kitobida Movarounnahrda ijtimoiy hayot Temur davlatiga bo‘ladigan sayyohatlarning asl sababi bo‘lgan.

Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo‘yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko‘p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar). Quyida biz ular bazilariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

**Sarguzasht turizmi** sayohatchilar kutilmagan hodisalarni kutishlari mumkin bo‘lgan uzoq joylarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu yangi madaniyat yoki yangi landshaft bilan bog‘lanishni va ayni paytda jismoniy faollikni o‘z ichiga oladi. Sarguzasht turizmining ba'zi turlari kunduzgi yurish, ryukzak, zip astar, erkin tushish, rafting, tog‘velosipedi, chang‘i va snoubordni o‘z ichiga oladi.

**Agroturizm** yoki agroturizm odatda fermer xo‘jaliklarida olib boriladi. Bu sayohatchilarga qishloq hayotini boshdan kechirish, mahalliy taomlarni tatib ko‘rish va turli dehqonchilik vazifalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi turizm Italiyada fermer xo‘jaligi deb ham ataladi. Agroturizmning ba'zi turlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozor agroturizmi, tajriba va ta'lim agroturizmi va tadbir va dam olish agroturizmidir.

**Madaniy turizm** - bu sayohatchilar mamlakat yoki din madaniyati, ayniqsa turmush tarzi va odamlar hayotini o‘rganish maqsadida tashkil etiladigan turizmning asosiy shakli va u sayyohlarning marosimlar va festivallar kabi tegishli tadbirlarga qatnashishi bilan yanada o‘zgacha ta’sir qiladi. Dunyodagi mashhur madaniy turizm yo‘nalishlaridan ba'zilari quydagilar Madagaskar, Lombok, Indoneziya; Latviya; Haida Gvayi, Britaniya Kolumbiyasi; Shimoliy Shri-Lanka; Chiang May, Tailand; Aristi, Gretsiya; G‘arbiy Keyp, Janubiy Afrika va Tamilnadu, Hindiston.

**Ekoturizm** buzilmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. Bu atrof-muhitni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. Dunyodagi eng yaxshi ekoturizm yo‘nalishlari qatoriga Alyaska, Amazonka, Antarktida, Avstraliyaning Moviy tog‘lari, Borneo, Botsvana, Kosta-Rika, Dominika, Galapagos orollari va Himoloy tog‘lari kiradi.

**Tibbiy turizm** deganda davolanish uchun boshqa davlatga sayohat qiladigan odamlar tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlardan odamlar arzon narxlarda davolanish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga boradilar. Dunyodagi mashhur tibbiy turizm yo‘nalishlari Hindiston, Malayziya, Braziliya, Tailand, Meksika, Kosta-Rika, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapurdir.

**Diniy turizm**, shuningdek, **e’tiqod turizmi** muqaddas joylarga alohida yoki guruh bo‘lib sayohat qilishni anglatadi. Bu joylarga madaniy, tarixiy va diniy ahamiyatini bilmog‘chi bo‘lgan diniy e’tiqodsiz sayyohlar ham tashrif buyurishadi.

Dunyodagi mashhur diniy turizm yo‘nalishlari: Shvedagon pagodasi, San-Vitale bazilikasi, MAKKA, Xarmandir Sohib, Osmon ibodatxonasi, Bahai bog‘lari, Vatikan, Vat Rong Khun, Avliyo Bazil sobori, Paro Taktsang, Ispaniya sinagogasi va Quddus.

**Sport turizmi** sport musobaqasini kuzatish yoki ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Bu eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, 7,68 milliard dollarga teng. Sport turizmi, shuningdek, sport tadbirlari turizmi, mashhur va nostalji sport turizmi va faol sport turizmi kabi tasniflanadi. Odatda, sayyohlar Olimpiya o‘yinlari, FIFA Jahon kubogi, F1 Gran-prisi, tennis bo‘yicha Jahon chempionati, BWF Jahon chempionati va Kriket bo‘yicha Jahon kubogi kabi tadbirlarga jalb qilinadi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan turizm yo‘nalishlaridan biz alohida eng ta’sirli va o‘zoq tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishni ya’ni madaniy turizmni alohida qayd etamiz va uni yanada rivojlantirish bizning asosiy vazifalarimizdan biri ekanligini ta’kidlaymiz. Bizning ona zaminimiz O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi 1992-yil 27-iyundan buyon o‘z faoliyatini olib bormoqda. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasi rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaitirish va boshqalardan iborat.

“O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqqan:

-klassik yo‘nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, BuxoroShahrisabz, Toshkent). Bu yo‘nalish eng qadimiy yodgorliklar va boshqa tarixiy madaniy obidalarga tashrif bilan bog‘liq;

-ekologik turizm yo‘nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo‘riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo‘riqxonalar). Bu yo‘nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog‘liq;

-arxeologik turizm yo‘nalishi (Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo‘ylab). Bu yo‘nalish O‘zbekistonning eng qadimiy topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo‘yadi;

-ekstremal turizm yo‘nalishi (Chimyon, Farg‘ona vodiysi, Orol bo‘yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo‘ylab); liniy turizm yo‘nalishi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) - mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarini ziyorat qilish bilan bog‘liq.

Bilamizki turizm sohasida ham o‘ziga xos muammolar va kamchiliklar bor ular bartaraf etish va bu sohani huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar

bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda “Turizm to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha 1999-yil 15-aprelda davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va bu qonun hujjatlari sohani rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o‘rta turistik korxonalarining xizmat ko‘rsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb qilish maqsadida 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda “Xususiy sayyoxlik tashkilotlari uyushmasi” tashkil etildi. U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada bo‘lib faoliyat olib boradi. O‘zbekistonda “Kumushkon” turistik bazasi va “Sanzar” kemping majmuasi mavjud bo‘lib, ular “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Beldersoy dam olish oromgohlari va yuzga yaqin xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi. O‘zbekistonda ko‘plab turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan mehmonxonalar soni tobora oshib bormoqda.

O‘zbekiston 1993-yilda o‘z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO; 1975-yilda tuzilgan)ga a‘zo bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a‘zosisdir. 2004-yil “Buyuk ipak yo‘li” loyihasi doirasida Samarqand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda turizm sohasiga oid “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro turistik reklamaaxborot gaz. (1994-yildan), “Biznes Gayd” JUR (RUS va ingliz tillarida) va boshqa ommaviy nashrlar chop etiladi. 2021-yil aprel oyida Dog‘istonda O‘zbekistonning ziyorat turizm salohiyati taqdimoti o‘tkazildi. Dog‘istonda “Imomlar yurtiga sayohat” yo‘nalishidagi targ‘ibot ishlari boshlangan.

Hech kimga sir emaski, O‘zbekiston o‘zining boy madaniy va tarixiy merosi, betakror me‘morchiligi va san‘atiga ega. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Urganch, Termiz, Qoraqalpog‘istonning qadimiy tarixiy obidalari O‘zbekistondagi tarixiy va ma‘rifiy turizmning asosiy poydevori hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda 7000 dan ortiq madaniy meros obyekti mavjudligini va bularning aksariyati YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilganligini bilamiz. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivaning tarixiy markazlari – bu O‘zbekistonning jahon sayyohlik bozorida ulkan salohiyatidan dalolat beradi. O‘zining noyob arxitekturasi, madaniy merosi yodgorliklari, qadimiy do‘konlar va hunarmandlar ustaxonalarini o‘ziga jalb etadigan mamlakatimizning eng qadimiy shaharlariga sayohat, shubhasiz, har bir

sayohatchini yorqin va unutilmas taassurotlar bilan qondiradi. O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixini his qilish va yangi madaniyatni kashf etishning eng yaxshi usullaridan biri bu mamlakatimizning barcha mintaqalarida joylashgan turli xil muzeylarga tashrif buyurishdir. Mamlakatimizda 400 dan ortiq turli xil muzeylar mavjud bo‘lib, shulardan 155 tasi davlatga tegishli. Ularning asosiy yo‘nalishi – tarix, o‘lkashunoslik, tasviriy va amaliy san‘at, shuningdek taniqli madaniyat va san‘at arboblarning memorial uy-muzeylaridir. Mamlakatdagi eng taniqli, yirik va ahamiyatli muzeylar qatoriga O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston davlat san‘at muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekiston davlat amaliy san‘at muzeyi, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat san‘at muzeyi, O‘zbekiston davlat tabiat muzeyi va boshqalarni kiritish mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki madaniy turizm haqiqatdan ham milliy madaniyatni tarbiyalashning eng asosiy vosiyasi har qanday milliylik na‘munasini his qilish uni tushunish va boshqalarga tushuntirish har kimga alohida zavq bag‘ishlaydi. Madaniy turizm na‘munasi bo‘lgan har qanday joy va unda amalga oshirilgan ishlar eng avallo bizning mliiy ruhiyatimizga ta‘sir etishdan o‘z ishini boshlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich “Turizm asoslari” o‘quv qo‘llanma T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011-yil 288 bet.
2. M.T.Aliyeva “Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti” darslik T.: TDIU 2007-yil 339 bet.
3. M.T.Aliyeva “Mehmonxona menejmenti” darslik T.: TDIU 2007-yil 275 bet

#### MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA EKSKURSIYA, SAYR VA ULARNING TURLARI

*Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Usbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ekskursiya, sayr va ularning turlari, tashkil etish shakllari, mazmun mohiyati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье изложены мысли и мнения об экскурсиях, прогулках и их видах, формах организации и сущности содержания в дошкольных образовательных организациях.

**Annotation:** In this article, there are thoughts and opinions about excursions, walks and their types, forms of organization, and the essence of content in pre-school educational organizations.

**Kalit so‘zlar:** ekskursiya, sayr, metodika, tabiat, parvarish, bog‘, o‘simlik

**Ключевые слова:** экскурсия, прогулка, методика, природа, уход, сад, растение.

**Key words:** excursion, walk, methodology, nature, care, garden, plant

Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida beriladigan bilimlar bolalarning imkoniyatlari hamda o‘rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil rivojlantirish imkonini beradi. Mashg‘ulotlarni ta’limiy ahamiyati bu bolalarga mashg‘ulotlarda berilishi yoki aniqlanishi hamda umumlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hajmi, bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi, nutqini o‘stiruvchi, qiziqishlarini o‘stiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bo‘lmog‘i lozim. Tarbiyaviy ahamiyati esa bolalarda kattalarga hurmat, Vatanga, o‘z o‘lkasi tabiatiga mehr – muhabbat, tabiatni avaylab – asrash, tabiat bergan ne’matlardan o‘z o‘rnida unumli foydalanish kabi hislatlari tarbiyalanadi.

Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari bolalarning imkoniyatlari hamda atrof- muhit va tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida o‘tadigan mashg‘ulotlarda guruhlarning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq oddiy ilmiy bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma’lum tizim hamda izchillikda o‘stiriladi, kundalik hayotda kuzatish, o‘yin mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari aniqlanib boriladi

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi ish shakllaridan biridir. Ekskursiya davomida bolalar o‘simlik va hayvon hamda jonsiz tabiat bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyadan mashg‘ulot turi sifatida o‘rta, katta, tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo‘lgan dastur mazmuni belgilanadi.

### Ekskursiya turlari

Tabiatshunoslik	qishloq xo‘jaligi
Tabiat, muzey, istiroxat bog‘i, botanika bog‘i, o‘rmon, daryo, o‘tloq	Dala, ekinzor, parrandachilik fabrikasi, chorvadorlik fermalari

Ekskursiya mashg‘ulotlarining afzalligi shundaki, unda bolalar o‘simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash tasavvurlarini, olamni ilmiy tushunishni shakllantirish imkonini yaratadi. O‘rmon, dala, daryo, ko‘l qirg‘oqlariga uyushtirilgan ekskursiya bolalarning diqqatini jalb qiladi. Tarbiyachi raxbarligi ostida guruh hamda tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlar turli-tuman materiallar to‘plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o‘rganishga qiziqish o‘sadi. Ular predmetni sinchiklab

kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadi. Estetik hissiyotlarning o‘shishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, vatanga muhabbat shakllantiriladi. Ekskursiyalar mazmuniga ko‘ra: tabiatshunoslik ekskursiyasi; qishloq xo‘jalik ob‘ektlariga ekskursiya turlariga va bo‘linadi.

**Tabiatshunoslik ekskursiyasi** kirish suhbatini, jamoa bo‘lib kuzatish, bolalarning yakka mustaqil kuzatishlari va tabiatga oid materiallar to‘plash bolalarning e‘tiborini tabiatning umumiy ko‘rinishiga jalb etadi. Ekskursiya qismlarining miqdori va ularni o‘tkazish izchilligi ekskursiyaning maqsadi, ob-havoga qarab o‘zgartiriladi. Bolalar ekskursiyalarda predmetlarning xarakterli xususiyatlariga oid bilimlarni mustahkamlaydilar, ularning belgisini so‘z bilan ifodalaydilar, o‘simlik, hayvonlarning qismlari nomlarini yodda tutadilar. Ekskursiya insonning tabiatga qanday ta‘sir etishini, o‘simliklarni qanday o‘stirishi va hayvonlarni qanday parvarish qilishni ko‘rgazmali ko‘rsatish imkonini beradi. Bu ekskursiyaning o‘ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta‘sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin.

**Qishloq xo‘jalik ekskursiyalarida** katta kishilarni mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida o‘tkaziladi. Ekskursiyani uyushtirish guruhdagi mashg‘ulotni uyushtirishdan murakkabroq. Shuning uchun uning muvaffaqiyatli bo‘lishi tarbiyachi va bolalarning unga puxta tayyorlanishlariga bog‘liqdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda sayrdan keng foydalaniladi. Sayr vaqtida tasavvurlarni shakllanishi uchun uzoq, muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo‘ladi. Tabiat hodisalarini kundalik kuzatishlar tasodifiy bo‘lmasligi lozim. Bularni tarbiyachi oldindan rejalashtirishi lozim. Sayr vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni mashg‘ulot maqsadiga ko‘ra uyushtiriladi.

Kichik guruhdan boshlab maqsadli sayr uyushtiriladi. Bu sayrlarda bolalarni yorqin tabiat hodisalari bilan tanishtiriladi. O‘rta, katta guruhlarda bir necha kun, ba‘zan xaftalab davom etadigan hodisalarni kuzatish mumkin. Bu kuzatishni uzoq, muddatli kuzatish deyiladi. Sayrlarda ob-havoni, osmonni, o‘simliklar gullarni, xazonrezlik, hayvonlar hayotidagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu turdagi kuzatishlar uzoq muddatli kuzatishlar deyiladi. Katta, tayyorlov guruhlarining bolalari sayrdagi kuzatishlarini tabiat kalendarida aks ettiradilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. – T., 2018.
2. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. darslik Toshkent: “Tafakkur Bo‘stoni” 2013.

3. Qodirova. F.R , Toshpulatova. Sh.Q, Kayumova. N.M, A'zamova. M.N “Maktabgacha pedagogika” darslik Tafakkur nashriyoti T.: 2019
4. M. I. Nuriddinova. “Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi” Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2005.

## TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY MADANIY YODGORLIKLARNING ROLI

**Imamova Nasiba**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasining roli va shu bilan birgalikda tarixiy obidalarning ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tildi. Shuningdek mintaqada turizm sohasining ayni damdagi, hozirgi holati qatorlicha to‘xtalib tahlil qilinib, uni kelgusida rivojlantirish bo‘yicha xulosa, takliflar va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarixiy yodgorliklar, menegment, sayyohlik, ekoturizm, milliy madaniyat, urf-odatlar, destinatsiya

Mamlakatda turizmni rivojlantirishda milliy madaniyatning roli katta. Milliy madaniyat urf-odatlar, an'analar, san'at, oshxona va ijtimoiy amaliyotlar kabi turli jihatlarni o‘z ichiga oladi, bularning barchasi destinatsiyaning o‘ziga xosligi va sayyohlarni jalb qilishiga yordam beradi. Milliy madaniyatdan samarali foydalanilsa, mamlakatning turizm industriyasining rivojlanishiga sezilarli yordam berishi mumkin. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda milliy madaniyatning o‘rni juda katta, chunki Markaziy Osiyodagi bu mamlakat o‘zining boy madaniy merosi va tarixiy ahamiyati bilan mashhur. Milliy madaniyat va turizmning o‘zaro ta’siri O‘zbekiston turizm sanoatining turli jabhalariga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab va dinamik aloqadir. Ushbu maqolada milliy madaniyat mamlakatda turizmni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda turizmning rivojlanishiga milliy madaniyat bilan bog‘liq turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydigan asosiy omillarni keltiramiz: 1. Boy tarixiy va madaniy meros: O‘zbekiston boy tarix va madaniy merosga ega, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlari YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu tarixiy va madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash va targ‘ib qilish mamlakatning noyob merosini o‘rganishga qiziquvchi sayyohlarni jalb qilishga xizmat qilmoqda.



Tarixiy yodgorlik, qoida tariqasida, me'moriy yodgorlik kabi ko'rinishda ifodali emas. Shuning uchun uni turistik mahsulotga kiritish turoperatoridan maxsus mahorat va shiddan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Bu, uchinchi, Arxitektura yodgorliklari: muayyan me'moriy uslublarning (klassitsizm, modernism uslubi, konstruktivizm va h.k.) xususiyatlarini aks ettiruvchi, ma'lum me'moriy xizmatlarga ega bo'lgan har xil turdagi inshootlar. Arxitektura yodgorliklari ko'pincha madaniy va ma'rifiy yo'nalishlarga kiradi. Ko'p hollarda, ular ma'lum bir mintaqaning yoki aholi punktining (shahar, qishloq, qishloq) turistik brendlari hisoblanadi. Arxitektura yodgorliklari, shuningdek, sayyohlik ko'rgazmasi obyektiga aylanishdan oldin, oldindan ishlashni talab qiladi (konservatsiya, restavratsiya, muzeyni to'liq yoki qisman ko'rgazmaga tayyorlash va boshqalar).

Zamonaviy turizm istiqbollari biri —noyob tabiiy maskanlar hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda ekoturizm eng rivojlangan yetakchi davlatdir. Yurtimiz boy hayvonot va o'simlik dunyosi, betakror landshaft manzarasi, milliy an'analar va taomlar oshxonasi bilan sayyohlar e'tiborini qozonib keladi. Ugom–Chotqol Davlat milliy tabiat bog'i, uning tarkibiga kiruvchi Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi, Aydar–Arnasoy ko'llar tizimi va Chimyon–Chorvoq kurort-rekreasiya zonalarida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda turizm yo'nalishida mutaxassislar tayyorlovchi oliy o'quv yurti, jumladan, Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti hamda o'ndan ortiq o'rta maxsus bilim yurti faoliyat ko'rsatmoqda. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi sayyohlik sohasida ta'lim olayotgan yoshlar, sohada mehnat qilayotgan mutaxassislarning Yevropa hamda Osiyoning yirik sayyohlik markazlari va o'quv yurtlarida malaka oshirishiga ko'maklashmoqda. Soha istiqbolida yana bir muhim jihat -bu hududlardagi barcha madaniy-tarixiy meros obektlari, tabiiy o'lkashunoslik, milliy qo'riqxonalar hududlarining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, turizm sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, mintaqalarda turizmni rivojlantirish uchun joylardagi mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik kuchlarini birlashtirishdan iborat. Bu boradagi izchil ishlarni amalga oshirishda mamlakatimizda mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo'lib, hududlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan va jarayon izchil davom etmoqda.

O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida turizmning boshqa turlariga nisbatan madaniy-ma'rifiy turizm muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bugungi kunda O'zbekistonda tarixiy obidalar va tarixni o'rganishga qaratilgan turizm keng rivojlantirilib, O'zbekistonning boy turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, sayyohlik salohiyatini oshirishga qaratilgan

tadbirlar amalga oshirilmoqda. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan, O‘zbekistonda YUNESKONing butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva, SHaxrisabz kabi ko‘plab tarixiy-me‘moriy obidalar mavjud bo‘lgan shaharlar joylashgan. Madaniy-ma‘rifiy turizm turizmning eng ommaviy turlaridan biridir. Madaniy-ma‘rifiy turizmning asosiy maqsadi tarixiy, me‘moriy, san‘at yodgorliklari, tabiiy va etnik o‘ziga xosliklar, biror xalqning zamonaviy turmushi kabilar bilan tanishishdan iborat bo‘lib, madaniy-ma‘rifiy turizm bugungi kunda dunyoda tobora katta qiziqish uyg‘otib, ommalashib borayotgan turizm turlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistondagi me‘moriy yodgorliklarning ko‘pchiligi mustaqillik tufayli qayta ta‘mirlanib, ushbu yodgorliklarning ko‘pchiligi XII-XX asrlarga taalluqlidir. Shu bilan birgalikda O‘zbekistondagi me‘moriy yodgorlik orasida IV-IX asrlarga tegishli bo‘lganlari ham uchraydi. O‘zbekiston hududida undan ham qadimiyroq madaniy yodgorliklar saqlanib qolganki, bu dunyo sayyohlarining O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi. O‘zbekistonda ibtidoiy va antik davrga tegishli bo‘lgan ko‘plab tarixiy yodgorliklar mavjud bo‘lib, bugungi kunda bu tarixiy yodgorliklardan turistik ob‘ekt sifatida foydalanishga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatayotgan mamlakatimiz hududidagi tarixiy-me‘moriy obidalar nafaqat moddiy madaniyat yodgorligi sifatida, balki shu bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, taraqqiy etgan, buyuk mutafakkirlar etishib chiqqan ilmu-ma‘rifat beshiklari sifatida ham xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Bu esa O‘zbekistonda bugungi kunda ziyorat turizmining faol rivojlanib borishi uchun ham ulkan imkoniyatlarni yaratmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1.Mamatqulov.X.M. Turizm infratuzilmasi.O‘quv qo‘llanma.-T., 2011
- 2.Xayitbayeva R., Matyaqubov U. Ekologik turizm.-S., 2010
- 3.Tuxliyev I.S., Xayitbayev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm Asoslari. - T., 2014

### **SOMONIYLAR DAVLATIDA DAVLAT BOSHQARUVI**

**Jo‘rayeva Sabrina Abdiquodir qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 1-kurs*

*2-23 guruh talabasi*

*sabrinajorayeva38@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilk o‘rta asr tarixidagi eng qudratli davlatlardan biri bo‘lgan somoniylar davlati haqida so‘z yuritiladi. Xususan Somoniylar davlatining davlat boshqaruvi hamda boshqaruv tizimlari haqida

batafsil ma’lumot beriladi va bunda eng yuqori davlat lavozimlaridan tortib kichik davlat lavozimlari va ularning vazifalari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar.** Movarounnahr, Xuroson, devon, dargoh devoni vazir, devoni sohib, xo‘jayi buzruk devoni mushrif, sipohsolor, shayxulislom, ustod, visoqboshi, chodir boshlig‘i, hayilboshi, hojib, devoni arz.

**Kirish.** Somoniylar davlati IX asrda Movarounnahr va Xuroson hududida tashkil topdi. Somoniylar o‘z davlatida juda yaxshi boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘ygan. Davlat boshida juda katta vakolatlarga ega bo‘lgan amir lavozimi turgan. Somoniylar davlatining ma’muriy tuzilishi quyidagicha tartibda bo‘lgan: dastavval boshqaruv organi dargoh (oliy hukmdor saroyi) va devon (davlat idorasiga) ga bo‘lingan. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatida amir va uning shaxsiy gvardiyasi katta rol o‘ynagan. Bu gvardiyaga turk g‘ulomlaridan saralanib olinar edi va ularning boshliqlari katta -katta davlat mansublarini egallagan edilar. Turk g‘ulomlari bunday martabaga o‘zlarining sadoqatliklari bilan erishganlar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Turk g‘ulomlarining xizmat pog‘onasidan ko‘tarilish jarayonini muarrix va davlat arbobi Nizomulmulk (1018-1092) ning mashhur “Siyosatnoma” asarida bayon etilishicha: “Somoniylar davridayoq, -shunday qoida bor edi. G‘ulomlar mansab darajasiga -pog‘onama-pog‘ona, qilgan xizmatiga qarab ko‘tarilib borgan. Dastavval g‘ulomni sotib olishgach, u bir yil piyoda askar bo‘lib xizmat qilar va zandoniy matosidan tikilgan qabolardan kamzulga o‘xshash ustki kiyimlar kiyib saroy qatorida yurar edi. G‘ulomlar o‘sha bir yil ichida xoh oshkora, xoh yashirincha bo‘lsa ham otga mina olmaganlar. Agarda ularni otga minganlarini bilib qolishsa ular jazoga tortilganlar.[1] Bir yildan so‘ng visoqboshi ( 3 g‘ulomga bosh bo‘lgan kichik komandir ) hojib ( gvardiyachi g‘ulomlarning oliy mansabi hisoblangan. G‘ulom yana 1 yil ustida xizmat qilgach, unga qorajur ( uzun shamshir ) unvoni berilar edi. Xizmatining 5-yilida unga eng yaxshi egar, yuldo‘z – yuldo‘z qilib bezatilgan yugan, doroy matosidan tikilgan qabo, cho‘qmor berar edilar: G‘ulom chuqmorni kamarining halqasiga ilib olar edi. Xizmatining 6-yilida unga anvoyi kiyim – boshlar berilar edi, 7 – yilida esa 16 kishi sig‘adigan chodir hamda o‘z ortyadiga 3 g‘ulomni olgan va uni visoqboshi deb atashgan. Visoqboshi kumush bilan bezatilgan qora kigizdan tikilgan qalpoq, ganja qabosini kiyar edi. [2] Shunday qilib lavozimlari yil sayin ko‘tarilib boravergan. U qanchalik obro‘ - e’tibor qozonmasin, qanchalik xizmat qilmasin, baribir 37 yil muddatdan keyingina viloyatlarga amir qilib tayinlar hamda unga yer – suv in’om etardilar. Bundan tashqari saroyda lavozimlar soni juda ko‘p bo‘lgan. Xususan saroydagi eng ulug‘ mansabdor shaxslardan biri ulug‘ hojib bo‘lib, unga saroy ahliga ko‘z – quloq bo‘lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Hojibi buzrug ( ulug‘ hojib ) dan keyin sohib karas (saroy soqchilari boshlig‘i ) turgan. Bu mansab ummaviylar va abbosiylar

davrida ham mavjud bo‘lgan. Bu mansab egalari oliy hukmdorning farmonlarini ijro bo‘lgan. Shu sababli odamlar hukmdordan ko‘ra ham uning so‘zlariga ishonishgan va undan qo‘rqishgan.[2] Dargohning xo‘jalik ishlari bilan vakil shug‘ullangan. Hamma vaqt bu ish tepasida - deb ta’kidlaydi Nizomulmulk – mashhur va ishonchli odam turgan . Shoh oshxonasidan tortib, to mayda omborlari va podshoh otxonasidan doimo ogoh bo‘lib , hukmdorning saroyi , bola – chaqasi , shuningdek saroyga ta’lluqli kishilardan ko‘z – quloq bo‘lib turuvchi shaxs , har oyda, balki deyarli har kuni, oliy hukmdorning kengashlarida ishtirok etgan hamda mamlakatda ro‘y berayotgan voqealardan uni xabardor qilib turgan. Narshaxiyning ma’lumoti bo‘yicha, Somoniylar davlati asosan devoni vazir, mustafiy, sohibi shurat, sohibi muayyid, mushrif, avqof va qaxo nomlari bilan yuritiladigan 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi. A.S. Sagdullayevning kitobida berilishicha somoniylarda davlat boshqaruvi asosan 10 ta devondan iborat bo‘lgan. Bu 10 ta devonga atabmaxsus 10 ta bino ham qurilgan. Bu devonlar o‘ziga berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishgan. Xususan devoni vazir (bosh vazir devoni ). Bu devonga barcha devonlar bo‘ysungan . Bosh vazir devoni barcha ma’muriy siyosiy, xo‘jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan. Devoni mustafiy (moliyaviy ishlar devoni ). Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devoni amid al – mulk yoki al – rasail (rasmiy hujjatlar devoni) .Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug‘ullangan . Yuqorida sanab o‘tilgan devonlarning barchasi ( sohib al – borid devonidan boshqa ) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo‘ysungan . Ta’kidlash lozimki, Somoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. [3]

Byurokratik apparat Buxoro registoni atrofida joylashgan 10 ta devon tomonidan boshqarib turilgan. Narshaxiyning ta’kidlashicha , ular quyidagilar: devoni vazir ( ulug‘ vazir devoni ), devoni mustavfiy ( moliya ishlari devoni), keyingi vaqtlarda devoni rasoil yoki devoni insho deb atalgan devoni amir al – mulklar davlat tayanchi devonlari, devoni sohib shurat ( amir gvardiyasi boshlig‘i devoni ), devoni sohib barid ( aloqa xizmati devoni ) , devoni mushrif ( amir nazoratchisi devoni) , devoni ad – diyya ( amirning shaxsiy mulklarini idora qiluvchi devon ) , devoni muxtasib ( ko‘cha va jamoa joylaridagi tartibotni tekshirib turuvchi devon ) devoni vaqf , devoni qo‘z zot ( qozilar devoni ) . Shunga muvofiq mustavofiy , xojayi omid , sohib shurat , mushrif , muxtasib , qozi al – qo‘z zot va boshqa mansablar bo‘lgan.[4]

Natija va muhokamalar. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe bo‘lishgan . Mustafiy devoni xazina ( moliya) kirim – chiqimlar , amidal – mulk davlat hujjatlari va elchilik aloqalari : sohibi shurat – soqchiboshi , sohibi muayyid – maktubot va axborot , ya’ni pochta ; mushrif – saroy ish boshqaruvchisi,

mumallikayi xos – davlat mulklari avqof – masjid va madrasalarning vaqf xo‘jaliklari bilan shug‘ullanar edi . Nasr ibn Ahmad (914 – 943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib , davlat mahkamasi mana shu maxsus binoda joylashgan edi . Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli , ruhoniy va zodagon dehqonlardan bo‘libgina qolmasdan ular muayyan bilimlarga xususan diniy va dunyoviy bilimlarni ham bilishlari shart bo‘lgan .[5] Odatda , ular arab , fors tillarini puxta egallab olgan , Qur’onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan , turli fanlardan xabardor bo‘lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan . Bu boshqaruv shakli o‘rta asrlarning o‘ziga xos an‘analaridan biri hisoblanadi . Somoniylar davlat boshqaruvi boshqa davlatlar xususan qoraxoniylar va g‘aznaviylar, tohiriylar davlatidan farq qiladi . Qoraxoniylarda asosan devon va dargoh asosiy vazifani bajarishgan. Somoniylar davlati kabi har bir sohaga devon biriktirilmagan.[6] Shu bilan birga IX X asrlarda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta yer – mulklar in‘om qilina boshlaydi.[7] Bunday mulklar “iqto” unga ega bo‘lgan shaxs “muqto “ yoki “iqtodor “ deb atalgan. Iqto dastavval oliy tabaqali zodagonlarga berilgan . Bu mulklar boshida bir umrga emas balki ma‘lum muddatga berilgan , uni nasldan naslga o‘tkazib bo‘lmagan . Iqtodorlar hadyaga berilgan mulklariga to‘laqonli egalik qila olmaganlar . Ular iqto yerlaridan tushadigan daromad yoki uning ma‘lum qisminigina yig‘ib olish huquqiga ega bo‘lganlar xolos.[7] Faqatgina viloyat yoki undan katta yer – mulk olgan iqtodorlar o‘z nomlaridan chaqa pullar chiqara olishgan . O‘z nomlaridan chaqa pullar chiqargan hukmdor va zodagonlar o‘sha davrda katta hurmatga sazovor bo‘lishgan . Somoniylar davlatining yirik markazi bo‘lmish Movarounnahr mustaqillikka erishishiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Bu esa Somoniylar davlatining ravnaq topishi va rivojlanishiga chet davlatlar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishiga , eng muhimi islom dinining kirib kelishiga va yoyilishiga sabab bo‘ldi .

**Xulosa.** Somoniylar davlatining davlat boshqaruv tizimining muhim xususiyati amirning oliy hokimiyati va devonlar tizimi orqali muvofiqlashtirilgan idoraviy boshqaruv bo‘lgan. Ushbu tashkiliy tuzilma samarali moliya boshqaruvi, qonunlar yaratilishi va ijrosi, hamda soliq tizimi kabi asosiy davlat funksiyalari uchun zarur bo‘lgan ko‘p qirrali yondoshuvni mumkin qilgan. Madaniyat va ilm-fanning gullab-yashnashi ham Somoniylar davlati boshqaruvi davridagi yorqin natijalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Ne‘matov “Davlati Somoniyon” 1989 yil 30 – 35 betlar
2. Nizomulmulk “Siyosatnoma “ Adolat 1997 -yil 87 -90 betlar
3. B. J. Eshov “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” Toshkent 2012-yil 167 -169-bet

4. A.S. Sagdullayev “O‘zbekiston tarixi” Toshkent 2020- yil 350-358 betlar
5. Somoniylar davlati va uning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni. Bitiruv malakaviy ishi Toshkent 2023 3 -9 betlar
6. В.В.БАРТОЛЬД - СОЧИНЕНИЯ.Т.2.Ч.1. «Восточной литературь. 1963.Москва. 118ст
7. Камалиддинов Ш.С. Историческая география. С. 116 – 117.

## ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ТУРИЗМ КАК ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ РЕГИОНА

**Бояркина Юлия Анатольевна**

канд. пед. наук. доцент, заведующий кафедрой общей и социальной педагогики Школы образования ФГАОУ ВО »Тюменский государственный университет», г. Тюмень, Россия, [y.a.boyarkina@utmn.ru](mailto:y.a.boyarkina@utmn.ru)

**Аннотация:** В статье рассматривается специфика построения системы образовательного туризма как потенциала развития системы образования Тюменской области и улучшение инвестиционного климата. Описаны основные результаты реализации региональных проектов по трем направлениям образовательного туризма: образовательные туры, проект «КУЛЬТУРА жизни», проекты в сфере социализации и воспитания.

Описаны некоторые образовательные маршруты, особенности проведения «уроков вне стен школы» и «уроков на производстве», создание корпоративных классов от ведущих промышленных партнеров Тюменской области, новый взгляд на реализацию уроков технологии, привлечение и закрепление молодежи на селе в агропромышленном секторе экономики и другие проекты.

**Ключевые слова:** образовательный туризм, инвестиционный климат, региональный проект, уроки вне стен школы, уроки на производстве, корпоративные классы, потенциал развития внутреннего туризма.

### **Educational tourism as a potential for the development of the region**

**Boyarkina Yulia Anatolyevna** – Candidate of Pedagogical Sciences. Associate Professor, Head of the Department of General and Social Pedagogy of the School of Education of the Tyumen State University, Tyumen, Russia, [y.a.boyarkina@utmn.ru](mailto:y.a.boyarkina@utmn.ru)

**Abstract:** The article shows the specifics of building an educational tourism system as a potential for the development of the Tyumen region's education system and improving the investment climate. The main results of the implementation of the regional projects in three areas of educational tourism: educational tours, the «Culture of Life» project, projects in the field of socialization and education.

Some educational routes are described, the specifics of conducting «the lessons outside the walls of school» and «the lessons at the different companies», the creation of corporate classes from leading industrial partners of the Tyumen region, a new look at the implementation of the technologies lessons, attracting and consolidating young people in rural areas in the agro-industrial sector of the economy and other projects.

**Keywords:** educational tourism, investment climate, regional project, lessons outside the school, lessons at work, corporate classes, the potential for the development of domestic tourism.

Образовательный туризм в Тюменской области начали развивать с 2017 года. С начала это были обыкновенные экскурсионные программы для школьников с образовательной составляющей. Оказалось, что в таком процессе, заложен значительный потенциал не только повышения образованности школьников, но и развития региона в целом. В связи с чем, произошло расширение подходов к реализации образовательного туризма, для того, чтобы привлечь не только молодежь к познанию региона, но и обнаружили возможности расширения работы со взрослым населением, привлечением потоков туристов из соседних областей, регионов, а затем и зарубежных гостей [1].

Рассмотрим несколько возможностей реализации образовательного туризма, на примере проектов, реализованных в Тюменской области в последние годы.

*Первым направлением*, можно выделить образовательные туры. Такие туры помогают школьникам старших классов определиться в выборе профессии и получить первые знания и опыт. Маршруты разработаны по трем направлениям и позволяют участникам погрузиться в профессии в энергетике, нефтехимии, сельском хозяйстве, а также дают первый опыт в предпринимательстве.

Такие поездки предполагают посещение предприятий, мастер-классы и встречи с представителями бизнеса. Создается возможность погрузиться в современные профессии на маршрутах «Город открытий. Экология и устойчивое развитие» с посещением Тобольска и предприятия «ЗапСибНефтехим» и «Город открытий. Энергетика». Старшеклассники отмечают, что такие маршруты нужны тем, кто интересуется предпринимательством или хочет познакомиться с историей города и получить при этом ценные знания. С детьми встречаются бизнесмены, представители власти и ученые, делятся своими бизнес-секретами, учат, как правильно генерировать бизнес-идеи. Можно с уверенностью сказать,

что прошедший год стал годом «урока на производстве». Налажены связи между школьными учителями, мастерами производств, представителями бизнес-сообщества.

Междисциплинарные занятия и выполнение прикладных учебных проектов на базе конкретных производств региона позволили на более качественном уровне подойти к формированию у детей универсальных учебных компетенций, профессионального самоопределения и приобщения к труду. Особенно важным для развития Тюменской области стало то, что предприятия реального сектора экономики включились в образовательный процесс и нашли выгоды для себя. Они увидели потенциал такого взаимодействия для формирования кадрового резерва на свои предприятия и подготовки специалистов на свои производства со школьной скамьи. Так, в Тюмени, Тобольске и некоторых муниципалитетах, созданы корпоративные классы: «Роснефть-класс», «Классы СИБУРа» и др..

**Второе крупное направление для школьников** - реализация регионального проекта «КультУРА жизни». Данный проект предполагает выход за тесные для современного подростка рамки традиционных уроков в многоаспектное пространство интерактивных выставок, музеев, театров, мультимедийных библиотек помог зажечь в детях живой интерес к познанию и творчеству, а также дополнить потенциал наших педагогов.

«Уроки на производстве» проводятся в нескольких форматах:

– Занятия по общеобразовательным дисциплинам на базе ведущих предприятий региона.

– Профессиональные пробы (проведение школьных занятий на базе центра профориентации, мастерских колледжей и др.).

– «Агропоколение» (региональный проект, предусматривающий новый формат профориентационной работы, направленной на закрепление молодежи на селе) [2, 3].

– Модель сетевого модульного обучения по предметной области «Технология» на базе Кванториума.

– Освоение новых компетенций и навыков формирования карьерной траектории в Академии профессий будущего Тюменского государственного университета.

«Уроки вне стен школы» проводятся вне стен школы, как для детей, так и для педагогов. По заранее установленному графику учителя школ всех муниципалитетов Тюменской области, проводят свои уроки на территории музеев, библиотек и современных образовательных центров города Тюмени – регионального центра.



Педагогические коллективы, так же оценили возможность и стараются хотя бы раз в год проводить свои педагогические советы вне стен своих образовательных организаций. Августовские региональные и муниципальные педагогические форумы, традиционно проводятся на городских площадках и интересных локациях города. Посредством такого подхода к организации обучения педагогических и управленческих кадров, даже традиционно статичные коллективы получили новый импульс к развитию и нашли интересные форматы работы в новой среде.

Новый виток развития образовательного туризма позволил мотивировать не только педагогических работников региона, но и привлечь педагогические и управленческие команды из других городов. Так в рамках образовательного туризма для обмена опытом, маршруты Тюменской области посетили коллеги из Екатеринбурга, Московской, Курганской, Челябинской, Свердловской областей, других регионов, делегации из других стран: Казахстана, Сингапура.

Не менее перспективным и плодотворным для развития образовательного туризма является заметное расширение системы сетевого образовательного сотрудничества. В рамках такого партнерства становится понятным, что далеко не всегда необходимо самим изобретать что-то новое в системе образования, в преподавании в школах и университетах, существуют уже опробованные решения и платформы, которые и в образовательной среде срабатывают на тот же интерес познания. Партнеры приносят в нашу традиционную жизнь совершенно другие технологии работы, другую деловую культуру. Конечно и от нас они получают возможность по-новому взглянуть как на сам процесс развития системы регионального образования, так и на привлечение инвесторов для развития региона и города.

Всегда актуальной остается тема социализации и воспитания, которая стала третьим направлением развития образовательного туризма. Были найдены интересные, а главное – продуктивные, социальные практики, которые позволили усилить потенциал образовательного туризма в регионе и привлечь туристов из других федеральных округов России. В данное направление входят такие события как:

- Информационно-просветительский проект «Мы – потомки героев!» (приняли участие 180 тысяч человек из 450 образовательных учреждений).
- Проект по развитию медиаобразования «Медиастрана» (приняли участие более 600 человек из 56 образовательных учреждений).
- Акция-конкурс «Узнай город земляка» (приняли участие 10 тысяч человек из 450 образовательных учреждений).

Подобные межведомственные проекты сегодня намного эффективнее, чем традиционный классный час, формируют позитивную социальную активность, гармоничные и эмоционально комфортные отношения взрослых и детей, привлекают школьников и педагогов из разных регионов России в Тюменскую область.

Так, реализация описанных выше направлений образовательного туризма, позволила увеличить потенциал развития Тюменской области как центра притяжения внутреннего туризма, привлечь в регион партнеров и улучшить инвестиционный климат. Включение педагогических работников в разнообразные интернет-активности обучающего характера, виртуальные мастер-классы, тренинги, методические сессии, лекции, профессиональные пробы, обмен опытом, выявление и распространение передовых практик, образовательные квесты, образовательный туризм для молодежи и педагогов, наставничество приносят в нашу жизнь совершенно другие технологии работы, другую деловую культуру, позволяют по-новому взглянуть как на сам процесс развития системы регионального образования.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Аигина Е.В., Тульская Н.И. Современное состояние и развитие детского туризма в российской федерации//Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). – 2015. - № 10 (54).
politsiya bo‘limi va teatr (masalan, rasmiy, norasmiy, tasodifiy, muzlatilgan, samimiy nutq uslublari). Amaldagi til bir kasbdan boshqasiga o‘zgaradi (ya'ni shifokorlar, muhandislar, iqtisodchilar turli terminologiyadan foydalanadilar). Boshqacha qilib aytganda, adabiyot Talabalarga sotsiolektlar, mintaqaviy lahjalar kabi keng ko‘lamli til turlarini taqdim etadi. jargon, idiolektlar va h.k., ularning maqsadli tilda sotsiolingvistik kompetentsiyasini rivojlantiradi. Demak, adabiyotni xorijiy tillarni o‘qitish dasturiga kuchli manba sifatida kiritish maqsadli tilning sotsiolingvistik jihatlarini aks ettirish uchun ahamiyat kasb etadi

## 2.2. Chet tili darslarida mos adabiy matnlarni tanlash mezonlari

Til darslarida foydalaniladigan badiiy matnlarni tanlashda til o‘qituvchisi talabalarning ehtiyojlari, motivatsiya, qiziqishlari, madaniy kelib chiqishi va til darajasini hisobga olish kerak. Biroq, e'tiborga olish kerak bo‘lgan asosiy omillardan eng muhimi o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va bu orqali shaxsiy ishtirok turini ochib berish. Badiiy matnni o‘qish mazmunli va qiziqarli, biroq uzoq muddatli bo‘lish ehtimoli ko‘p va o‘quvchilarning lingvistik va ekstralingvistik bilimlariga qimmatli ta'sir ko‘rsatadi. Haqiqiy hayot tajribalari, his-tuyg‘ulari yoki ularga tegishli kitoblarni tanlash o‘quvchining orzulari katta ahamiyatga ega. Til qiyinligini ham hisobga olish kerak. Agar adabiy asarning tili sodda bo‘lsa, bu uning tushunarli bo‘lishini osonlashtirishi mumkin adabiy matn, lekin o‘z-o‘zidan eng hal qiluvchi mezon emas. Qiziqish, jozibadorlik va dolzarblik ham muhim. Rohatlanish; qalbi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar haqida yangi tushuncha odamlarning tashvishlari; misolida o‘z fikrlari yoki vaziyatlarga duch kelish zavqi san'at asarida aniq; ikkinchisi, xuddi shu fikrlar, his-tuyg‘ularni payqashdan zavqlanish, his-tuyg‘ular yoki mutlaqo yangi nuqtai nazar tomonidan taqdim etilgan vaziyatlar: bularning barchasi motivlar o‘quvchilarga juda katta deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan lingvistik to‘siqlarni yengishga yordam berish jalb qilingan material (Collie and Slater 1990: 6-7).

### 3. Turli janrdagi adabiyotning tilga foydasi

#### 3.1. Til o‘rgatishda she’riyatdan foydalanishning afzalliklari

She'riyat asosiy til ko‘nikmalarini o‘rganish va o‘rgatish uchun yo‘l ochishi mumkin. Bu ta'lim va she'riyat o‘rtasidagi eng yorqin bog‘liqlik bo‘lgan metafora. Chunki ko‘pchilik she'r ongli yoki ongsiz ravishda metaforadan asosiy usullardan biri sifatida foydalanadi; she'riyat muhim o‘quv jarayonini taklif qiladi. O‘rganishning kamida ikkita foydasi bo‘lishi mumkin :

- Talabalar yozuvchining kompozitsiya jarayonini tashkil qilish qobiliyatini qadrlash bo‘yicha she'rlarni o‘rganish

- Keyinchalik chuqurroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar va kashfiyotlar uchun sezgirlikni rivojlantirish , qiziqish va yuqori tahliliy qobiliyat

Sarach (2003:17-20) ham she'riyatning tarbiyaviy afzalliklarini quyidagicha izohlaydi:

- o‘quvchilarga tildan foydalanishga nisbatan boshqa nuqtai nazarni taqdim etadi

grammatika, sintaksis va lug‘atning ma'lum qo‘llanilishi va qoidalari yuzasidan ko‘nikma hosil bo‘ladi,

- Izlanishlarga ochiqligi va turlicha bo‘lishi tufayli g‘ayratsiz o‘quvchilarni ishga soladi,

- yurakda va ongida his-tuyg‘u va fikrlarni uyg‘otadi;

- kundalik tildan foydalanishning bir qismi bo‘lganligi sababli o‘quvchilarni nutqiy shakllar bilan tanishtiradi (masalan, o‘xshatish, metafora, kinoya, shaxslashtirish, tasvirlash va boshqalar).

### 3.2 Til o‘rgatishda qisqa hikoyalardan foydalanishning afzalliklari

Qisqacha badiiy adabiyot nafaqat tilni, balki hayotning o‘zini ham kuzatish uchun oliy manbadir. Qisqa hikoyalar fantastika, qahramonlar odamlarning kundalik hayotida bajaradigan barcha haqiqiy va ramziy xatti-harakatlarini aks ettiradi; va buni turli registrlar va ohanglarda ifodalaydi. Qisqa fantastika dunyosi ham oyna, ham inson hayotini yoritadi (Sage 1987: 43). ESL / EFL ga qisqa fantastika kiritilishi o‘quv dasturi quyidagi ta'lim imtiyozlarini taklif qiladi (Ariog‘ul 2001: 11-18):

- sodda va qisqa bo‘lganligi sababli boshqa adabiy janrlar bilan solishtirganda, o‘quvchilarning o‘qish vazifasini osonlashtiradi

- ilg‘or darajadagi o‘quvchilarning turli madaniyatlar va turli odamlar guruhlari haqidagi dunyoqarashini kengaytiradi

- haqiqiy material bo‘lganligi sababli o‘quvchilarni o‘qishga undaydi;

- mo‘jizalar olami va sirlar olamini taklif qiladi,

- o‘quvchilarga o‘z ijodiy imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi

- tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi,

- chet el madaniyatini o‘rgatishni osonlashtiradi (ya'ni, o‘qitishda qimmatli vosita bo‘lib xizmat qiladi

- talabalarga o‘zlarini qulay va erkin his qilishlari uchun imkoniyat yaratadi;

- universal tili tufayli turli millatlardan kelgan talabalarga bir-biri bilan muloqot qilishda yordam beradi;

- talabalarga yuzaki ma'nodan tashqariga chiqishga va asosiy ma'noga sho‘ng‘ishga yordam beradi

- o‘quvchilarning pozitsiyalarini tushunishga yordam beradigan mukammal vosita vazifasini bajaradi

### 3.3 Til o‘rgatishda dramadan foydalanishning afzalliklari

Til sinfida dramadan foydalanish til o‘rgatish uchun yaxshi manbadir. Bu drama yordamida o‘quvchilar grammatik tuzilmalar bilan tanishadilar kontekstlarni, shuningdek, ifodalash, nazorat qilish va ma'lumot berish uchun tildan qanday foydalanishni o‘rganadilar. Foydalanish Drama o‘quvchilarning maqsadli til va madaniyatga nisbatan xabardorligini oshiradi. Bunda kontekstga ko‘ra, chet el tilini o‘qitishda dramadan maqsad emas, balki vosita sifatida foydalanish muhim ahamiyatga ega . Shunga qaramay, bitta aniq xavf bor: madaniy majburlashdan qat'iy qochish kerak chunki u ko‘p hollarda til ego va ona tili o‘zligini yo‘qotadi. Boshqacha qilib aytganda, til o‘rganish madaniyat bilan aloqador bo‘lishi kerak, lekin butunlay madaniyatga qaram bo‘lmasligi kerak. Shu sababli, yangi til va dramaning konteksti til o‘rganishda birlashishi kerak yuqori qiziqish, dolzarblik va zavq bilan o‘tadigan jarayon. Talabalar dramadan foydalanishlari kerak ularning hayotiy tajribalarini tushunishlariga yordam berish, muayyan holatlar haqida fikr yuritish va ularning ekstralingvistik dunyosini chuqurroq anglashga yordam beradi (Sarichoban 2004:15).

#### Xulosa

Ingliz tili xorijiy til sifatida o‘rganiladigan davlatlar ta’lim dasturlarida adabiyot muhim rol o‘ynaydi. Biroq, adabiyot orqali ingliz tilini o‘rgatish sohasida til o‘qituvchilarida bir qator muammolar mavjud

. Birinchidan, til o‘qituvchilari foydalanishi mumkin bo‘lgan pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan tegishli materiallar juda oz. Ikkinchidan, TESL / TEFL dasturlari adabiyot o‘qitish bo‘yicha tayyorgarlik yetarli emas. Uchinchidan, ESL/EFL tilidagi adabiyot rolini belgilaydigan aniq maqsadlar yo‘qligi. Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘z sinflariga adabiyotlarni kiritishga harakat qilishadi, ammo ushbu sohadagi ma'lumotlar va tayyorgarlik yetishmaydi.

Obediat(1997:32) ta'kidlaganidek, adabiyot o‘quvchilarga o‘z ona tillaridagi kabi malakaga ega bo‘lishga yordam beradi. Ingliz tilida o‘z fikrlarini yaxshi ifodalash, zamonaviy ingliz tilining xususiyatlarini o‘rganish, ingliz til tizimi aloqa uchun qanday ishlatiladi, idiomatik iboralar qanday ekanligini ko‘rishda foydalaniladi, aniq va ixcham gapirish va ingliz tilida ko‘proq malakaga ega bo‘lishga , yordam beradi Shuningdek, ijodiy, tanqidiy va tahliliy fikrlovchi o‘quvchilarga aylanish imkoniyatini yaratadi. Kastodio va Satton (1998:20) adabiyot o‘quvchilarga savol berishga imkon beradigan imkoniyatlar ufqlarini ochishi mumkinligini tushuntadi, izohlash, bog‘lasah va o‘rganishga yordam berADI. Xulosa qilib aytganda, adabiyot talabalarga beqiyos boylikni beradigan registrlarning keng doirasi bo‘yicha haqiqiy material manbai hisoblanadi. Agar talabalar bunga kirish imkoniga ega bo‘lsalar adabiy kompetentsiyani rivojlantirish orqali materialni o‘rgansa, ular tilni samarali tarzda yuqori darajada o‘zlashtirishlari mumkin (Elliot 1990: 198). Ayniqsa, og‘zaki / lingvistik

intellektga ega bo‘lgan talabalar uchun, til o‘qituvchisining chet tili darsida adabiyotdan foydalanishi yuksak darajada rag‘batlantiruvchi, qiziqarli va jonli dars yaratishga xizmat qiladi. Adabiyot faqat yozma asarni rivojlantirish vositasi emas va talabalarning maqsadli tilda og‘zaki nutq ko‘nikmalari, shuningdek, talabalarda madaniy kompetensiyani shakllantirishda samarali usul hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arıoğul, S. 2001. “The Teaching of Reading Through Short Stories in Advanced Classes” Unpublished M.A Thesis. Ankara: Hacettepe University.
2. Collie, J. and S. Slater. 1990. *Literature in the Language Classroom: A Resource Book of Ideas and Activities*. Cambridge.
3. Custodio, B. and M. Sutton. 1998. “Literature-Based ESL for Secondary School Students” in *TESOL Journal*. Vol 7, No.5, p.p: 19-23.
4. Elliot, R. 1990. “Encouraging reader-response to literature in ESL situations” in *ELT Journal*. Vol 44, No. 3, p.p:191-198
5. Helton, C.A, J.Asamani and E.D.Thomas. 1998. “A’Novel’ Approach to the Teaching of Reading”. Tennessee State: Tennessee State University, p.p: 1-5, Available Internet Address: [http:// www.nade.net / documents / SCP98 / SCP98.19](http://www.nade.net/documents/SCP98/SCP98.19).
6. Hiller, J.P. 1983. “Teaching Poetry in the Foreign Language Classroom: Theory and Practice.” Unpublished PhD Dissertation. Stony Brook: State University of New York.
7. Lenore, K.L. 1993. *The Creative Classroom A Guide for Using Creative Drama in Classroom*. U.S.A.: Elsevier.
8. Maley, A. 1989. “Down from the Pedestal: Literature as Resource” in *Literature and the Learner: Methodological Approaches*. Cambridge: Modern English Publications.
9. Obediat, M. 1997. “Language vs. Literature in English Departments in the Arab World” in *English Teaching Forum*.
10. Sage, H. 1987. *Incorporating Literature in ESL Instruction*. New Jersey: Prentice-Hall.
11. Saraz, S. 2003. “A Suggested Syllabus for the Teaching of Poetry Course in ELT Departments of Turkey” Unpublished M.A Thesis. Ankara: Hacettepe University.
12. Stern, S. 1991. “An Integrated Approach to Literature in ESL / EFL” in *Teaching English as a Second or Foreign Language*. ed. Murcia, M. Boston: Heinle & Heinle Publishers.

## O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Rayimova Dilfuza**Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirish, ichki turizmning o‘rni va ahamiyati va ularni rivojlantirish yo‘nalishlari va mintaqalarda turistik resurslardan samarali foydalanish usullari ko‘rsatiladi.

**Kalit so‘zlar**

Ziyorat turizm, ichki va tashqi turizm, tarixiy va ziyoratgoh joylar, madaniy joylar, turizmni tahlil qilish, Samarqand, tarix, diniy turizm, Buxoro.

Ziyorat diniy turizmning bir turi sifatida odamlarning muqaddas qadamjolarga sayohat qilish sayohatidir. Muqaddas joylar Markaziy Osiyodagi musulmonlarning diniy hayotida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ziyorat turizmi musulmonlar uchun muqaddas Buxoro va Samarqand shaharlari bo‘lganligi sababli salmoqli rivojlanish salohiyatiga ega. Islom diniga e‘tiqod qiluvchilar uchun bu qadimiy huddudlarda ko‘plab muqaddas maskanlar mavjud. Samarqandning 2750 yillik tarixga ega bo‘lib, u Rim, Afina, Bobil bilan tengdoshdir. Shoir va tarixchilari uni haqli ravishda “Yer yuzining sayqali” deb atashgan. Samarqanddagi muhim ziyoratgoh bu shahardan 12 km uzoqlikda joylashgan Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasidir. Bu erda hadis ilmining asoschisi Ismoil Buxoriyning qabrida masjid qurilgan. XVI asrda qabr ustida kichik maqbara qad ko‘targan va yonida masjid qurilib, chinorlar o‘tqazilgan. 1998-yilda alloma tavalludining 1225 yilligi nishonlanishi munosabati bilan Qadimiy maqbara o‘rnida yodgorlik majmuasi barpo etildi. Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida majmuadagi barcha ob‘ektlarni to‘liq demontaj qilish va atrofini obodonlashtirish asosida faqat besh asrlik chinorlar va markaziy maydondagi buloq saqlanib qolinib, yangi majmua qurishga qaror qilindi. Yaqin kunlarda majmua oldida 313 ta yotoqxona, 76 ta oilaviy mehmon uyi va bir vaqtning o‘zida 449 nafar mehmonni qabul qila oladigan choyxonaga ega zamonaviy mehmonxonalar rejashtirilgan. Shuningdek, ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida majmua hududida ikkita avtoturargoh, savdo shoxobchalari va boshqa infratuzilma obyektlari qurilmoqda. Imom al-Buxoriyning tug‘ilgan vatani 2500 yillik Buxoro islom olamida Makka, Madina, Bag‘dod, Mozori Sharif, Shom va Quddus bilan birga sharif shahrlar qatoriga kiradi. Muqaddas Buxoroning g‘oyaviy asosini so‘fiylik ta‘limoti tashkil etadi. Buxoroda Markaziy Osiyoning so‘fiy obidalari eng yorqin, rang-barang va ko‘p sonli me‘morchiligi aks etgan. Yetti pir maqbaralari ko‘plab musulmonlarning ziyoratgohidir.

Jahon brendlarining faol ishtiroki bilan ushbu sektorda biz turizm, ekologik ma‘rifiy, etnografik, gastronomik, turizm va boshqa sohalarni rivojlantirishga



alohida e‘tibor qaratishimiz kerak. Shu munosabat bilan biz davlat va xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llash sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz kerak. Samarqand, Buxoro, Xorazim, Surxondaryo va Toshkentdagi muqaddas qadamjolarini va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “Kichik haj” dasturini ishlab chiqish va tezlashtirish zarur. Shuningdek, ichki turizm sohasida keng ko‘lamli imkoniyatlarni to‘liq ishga tushirish zarur (МИРЗИЁЕВ, 2018)

O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilmoqda va respublikamizga tashrif buyuradigan turizm imkoniyatlari to‘g‘risida jahon hamjamiyatini xabardor qilish masalasiga e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda yangi sayyohlik brendini rivojlantirish, tashrif buyuruvchilar uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, tashrif buyuruvchilar talablarini inobatga olgan holda mavjud sayyohlik yo‘nalishlarini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratildi. Turkiya, Eron, Pokiston, Malayziya, Indoneziya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlardan kelgan sayyohlar soni O‘zbekistonga tashrif buyurish yo‘nalishida ko‘paygan. 2019 yil may oyida Samarqandda “Buyuk Ipak yo‘li kurortida ziyorat turizmining qayta tiklanishi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya bo‘lib o‘tdi. Diniy ziyoratgohlarning o‘zi ziyorat turizmi uchun yetarli emas. Sayyohlarni jalb qilish uchun targ‘ibot ishlari yaxshi viza rejimi, aeroportlarda ibodat qilish uchun sharoitlar, mehmonxonalar va hokazolar yaxshi yo‘lga qo‘yilishi kerak. Buxoroda podshoh cherkov hovlisi, ibodat zali, Sayfiddin Boharziy, Kalon minorasi, Magoki Attoriy, Piri Dastgir, Xo‘ja Ismat masjidlari, shuningdek, ko‘plab muqaddas joylar va ziyoratgohlar mavjud. Bular Abduholiq G‘ijdivoniy, dunyo xalqi ustozlari deb nomlangan, “Xoja Orif Mohitabon” deb nomlangan Xoja Muhammed Orif Ar revgari; Xoja Ali Romitani, uning nomi xalq orasida “Xoja Azizxon”, Said Mir Kulal va Xazrat Bahouddin Naqshbandiy, odamlar orasida “Buyuk Xoja”, “Avliyolar Sultoni” deb nomlangan. Sharqiy uyg‘onish davrining IX–XII va XIV–XV asrlarida Islom ilmlari O‘zbekiston hududida bir necha yo‘nalishda ilmiy donolik tarzida rivojlanib, so‘zni bilish, rivoyatlarni bilish, Yakkaxudolik, e‘tiqodni bilish, insonni dunyo yordamida bilish. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun boshqa ko‘plab muqaddas joylar va ziyoratgohlar mavjud. Surxondaryo viloyatida Hakim at-Termiziy ansambli, Sulton Saodat maqbarasi, Abu Muhammad at-Termiziy maqbarasi, Qirq qiz qal’asi, Fayoztepa yodgorligi, Buddist ibodatxonasi, Zartepa, Dalvarzintepa, Eski Termiz, buddizmning Qoratepa, Oqsaroy kabi yodgorliklari. Qashqadaryo viloyatida Doruttilovat ansambli, Shamsiddin Potter maqbarasi, Gumbazi Sayidon, Ko‘k Gumbaz Masjidi, Dorussaodat ansambli, Imom Ismoil al-Buxoriy, Mahdumi A‘zam, Xorn-Zinda ansambli mavjud. Samarqand viloyatida Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad maqbarasi, Imom Burxoniddin Marg‘inoniy

maqbarasi, Xo‘ja Abdu Darun maqbarasi, Xazrati Xizr masjidi, Nuriddin Basir maqbarasi, Burxoniddin Sagarjiy (Ruhobod) maqbarasi, Cho‘ponning otasi maqbarasi, Xo‘ja Ahror qabri, Doniyor payg‘ambar (Muqaddas Daniil) maqbarasi. Buxoro viloyatidagi diniy ziyoratgohlar Kalon Masjidi, Somoniy maqbarasi, Boloxovuz Masjidi, Magoki Attoriy Masjidi, Habib Xavuz Ansambli, Nodir Devon Begi Xonaqosi, Namozgoh Masjidi, Chashmai Ayub maqbarasi, Fayzobod Xonaqosi, Xo‘ja Zayniddin Masjid – Honaqosi, Xazrati Bahouddin Naqishbandiy maqbarasi, Abduxoliq G‘ijduvoniyy maqbarasi. Xorazim viloyatining diniy yodgorliklari – Said Alovuddin maqbarasi, Juma Masjidi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Muxtor ali maqbarasi, va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ziyorat turizmi aslida xalqlar va shaharlar tarixini monetizatsiya qilishdir. Bu shaharlarning tarixiy qiyofasining buzilishi turizmni rivojlantirish istiqboliga tahdid solmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z chiqishlarida xorijiy davlatlarning tajribasini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish borasida bir necha bor to‘xtalib o‘tdi. Darhaqiqat, tarixiy ruhni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan va texnologik taraqqiyotga erishgan, har yili ziyorat turizmidan kata daromad oladigan boshqa mamlakatlar tajribasini sinchkovlik bilan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYALANILGAN ADAYOTLAR RO‘YXATI:

1. Huaxia. (2021). Uzbekistan expects int'l tourists to return after pandemic . In Xinhua, www.xinhuanet.com (p. China). Xinhua: 2021-02-14.
2. Jurakhonovich, K. S. (Apr - jun 2020). Pilgrimage Tourism in Uzbekistan; Problems and Solutions. Social Sciences and Humanities, Uzbekistan.
3. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. In J. o. Marketing, Journal of International Business Research and Marketing (p. Uzbekistan). Tashkent: September, 2020.

#### JANUBIY SUG‘DDA KESHNING TUTGAN O‘RNI.

**Rustamova Sevinch Faxriddin qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix yo‘nalishi 1-kurs

2-23 guruh talabasi

@rustamovasevinch144gmail.com

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qadimiy sivilizatsiyalardan biri bo‘lgan Sug‘d va uning chin ma‘noda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lmish shahri Kesh tarixi, hukmdorlari, tarixda tutgan o‘rni va madaniy-siyosiy aloqalari, savdo taraqqiyoti hamda shahardan o‘tgan yo‘llar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Sug‘d, Kesh, Gava So‘g‘da, Shi, ixrid, Shishpir, Panjikent.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье история Согда, одной из древних цивилизаций, и его истинного экономического, социального и культурного центра, города Кеш, его правителей, его место в истории и культурно-политических отношениях, развитие торговли и гибель городе есть разговоры о дорогах.

**Ключевые слова:** Согд, Кеш, Гава Согда, Ши, Ихрид, Шишпир, Пенджикент.

## ANNOTATION

In this article, the history of Sughd, one of the ancient civilizations, and its true economic, social and cultural center, the city of Kesh, its rulers, its place in history and cultural-political relations, trade development and the death of the city. there is talk about the roads.

**Key words:** Sogd, Kesh, Gava Sogda, Shi, Ikhrid, Shishpir, Panjikent.

**KIRISH.** Ilk davlatchilik bosqichiga o‘tish davrida O‘rta Osiyo mintaqasida Baqtriya, Sug‘d va Xorazm kabi davlatlar tarkib topayotgan edi. Xususan, shulardan biri Sug‘d davlatidir. O‘rta asr arab-fors tarixchilari tomonidan Sug‘d deb Zarafshon o‘lkasining markaziy, xususan, Samarqand hamda Janubiy Sug‘d deb Qashqadaryo ya‘ni Kesh va Naxshab hududlarini keltirganlar. Tarixdan ma‘lumki, Sug‘d yoki Sug‘diyona davlati miloddan avvalgi I mingyillik birinchi yarmida O‘rta Osiyo hududida shakllangan ilk davlatlardan biri bo‘lib, qadimgi eroniy manbalarda Suguda, yunon manbalarida esa Sogdiana tarzida talqin qilinadi. Konfederativ boshqaruvdagi bu davlat O‘rta Osiyo tarixida alohida o‘rin egallaydi va uning madaniyati Sharqiy Turkiston, Xitoy, Eron va Hindistonga ham tarqalgan. Bu borada ayniqsa Janubiy Sug‘d (Zarafshon va Qashqadaryo vohalari) yetakchilik qilgan. Ta‘kidlash joizki, Janubiy Sug‘ddagi Kesh Sug‘d konfederatsiyasining markazi bo‘lgan. Xususan, o‘rta asrlarda Tan sulolasi yilnomalarida Sug‘d “Shi” ya‘ni Kesh nomi bilan atalgani ham buning yaqqol namunasidir. Ayni vaqtda arab mualliflari al-Muqaddasiy va Jayhoniyning ma‘lumotlariga ko‘ra Kesh yirik markazlardan biri hisoblangan. Al-Muqaddasiy quyidagicha yozadi: “Sug‘dning bosh asosiy shahri – Samarqand bo‘lib undan keyin esa Kesh turadi”. Janubiy Sug‘dning muhim nuqtalaridan biri bo‘lgan Keshda ilk o‘rta asrlar arab manbalariga ko‘ra 17 ta mulklar mavjud bo‘lgan va ular ma‘lum ma‘noda mustaqil bo‘lganlar. Ular Arg‘an, Aru, Balandarin,

Buzmajan, Kashk, Maymurg‘, Kashkrut, Ichki Sankarda, Tashqi Sankarda, Miyon Kish, Rasmayn, Rud, Siyam, Surruda, Jajrud, Xuzar va Xuzarrudlardir. [1]

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Ushbu mavzuni yoritishda Keshning markazlik faoliyatiga va shu bilan birga ijtimoiy mavqeyiga ham alohida e‘tibor qaratilib, G‘aybulla Boboyorov, Bobir G‘oyibovning “Sug‘dshunoslikka kirish-I. Sug‘diy til va numizmatika”, Azimxo‘ja Otaxo‘jayevning “Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari”, Nosir Muhammadning “Nasaf va Kesh allomalari”, Bobir G‘oyibov “Sug‘d tarixidan lavhalar”, Suyun Qorayevning “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari” kabi bir qator adabiyotlarda ma‘lumotlar uchraydi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Manbashunoslik, matnshunoslik, tahliliy, taqqoslash.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Sug‘d konfederatsiyasida Janubiy Sug‘dning mulklari bo‘lgan qadimgi Shi (Kesh) va Nashebo (Naxshab) shaharlari (hozirgi Qashqadaryo viloyati) alohida o‘rin tutgan. Xususan, Kesh iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan muhim markaz bo‘lgan va keng hududni o‘z ichiga olgan. Manbalarga qaraganda, “Kesh” atamasi (tangalarda “Kesh podshosi”, “Axurpat Kesh hokimi”) milodiy VI-VII asrlarda paydo bo‘lgan. Ammo viloyat nomining kelib chiqishi ancha qadimgi davrlarga ya‘ni mil. avv. XI-VIII asrlarga borib taqaladi. “Avesto” da keltirilgan “Gava So‘g‘da” (“So‘g‘d Makoni”) tushunchasi aynan yuqorida qayd etilgan hududga, ya‘ni Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi tog‘oldi va tog‘li hududlarga tegishli bo‘lgan. Olimlarning olib borgan tadqiqotlari Qashqadaryo hududining sharqiy qismidagi viloyat va uning shahar markazi turli davrlarda turlicha nomlangan deb xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Mil.avv. IX-VIII asrlarda viloyatning nomi Gava So‘g‘da, mil.avv. VII-IV asrlarda Nautaka va VI-XV asrlarda esa Kesh bo‘lgan. Kesh (hozirgi Shahrisabz shahri) ning taraqqiy etgan davri VII asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi va ayni shu davrdan boshlab Kesh Sug‘dning poytaxti bo‘ladi. Yozma va numizmatik manbalarda shaharni uch hukmdor – Dichje, Shishpir va Axurpatlar boshqarganliklari qayd etilgan. Ma‘muriy markazlarning turli tarixiy davrlarda bir hududdan boshqa hududlarga ko‘chishi tabiiy-geografik, siyosiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lgan. VIII-X asrlarda poytaxt Keshda bu holat arab noiblarining ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning sababi Kitob o‘rnidagi isyonchi shaharni, uning mudofaa inshootlari hamda ilgari barcha Kesh hukmdorlari, xususan «Kesh hukmdori» yozuvi bilan tanga zarb qilgan Shishpir va Axurpat joylashgan qarorgohi bo‘lgan arkni qayta tiklamaslikdan iborat edi. [2]

Tilga olinayotgan Kesh shahri hozirgi Shahrisabz shahrining oldingi nomidir. Shahar nomi ilk arab geografik manbalarida “Kash” va “Kass” tarzida

keltirib o‘tilgan. Tarixchi va sharqshunos V.V. Bartold Keshning Kishsh tarzida talqin qilinishini ma’qul ko‘rgan. Kesh toponimlari “uy”, “turar joy” ma’nolarini bildirsada, u yirik markaz shaharlardan biri bo‘lgan. Qashqadaryoning yuqori oqimida joylashgan bu shahar haqida “Boburnoma” asarida ham ta’kidlab o‘tilgan. [3]

Bu davrda Sug‘ddagi deyarli barcha hukmdorliklar o‘z unvonlariga ega bo‘lganlar. Hokimlar arab-fors manbalarida xudot, malik va dehqon unvonlari bilan tilga olinadi. Sug‘dning barcha hukmdorliklarida ,masalan, Samarqandda – ixshid, Keshda – ixrid, Naxshabda – ispahbod deb nomlanga mahalliy an’anaviy unvonlar bo‘lgan. Ammo numizmatik ma’lumotlardan bu hududlarda turkiy unvonlar ham amal qilganligini bilishimiz mumkin. [4] Ayni damda konfederatsiyaning yirik markazi sifatida Kesh mulkdorlari o‘z nomlaridan tangalar zarb ettirganlar. Sug‘d tangalarini o‘rganish davomida shuni aytish lozimki, tadqiqotlarga ko‘ra ma’lum muddat Kesh markaz sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, VII asrning o‘rtalariga oid Samarqand tangalari topib o‘rganilganda, undan Kesh hukmdorligiga xos bo‘lgan triskeles shaklidagi (♂) tamg‘a uchraydi. Shuni aytish lozimki, VII asrning birinchi yarmida Samarqandni hukmdori bo‘lgan Shishpir asli Keshlik bo‘lganligi tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘lgan. [5] Tarixchilarning fikriga ko‘ra, III-VI asrlarda Naxshab va Kesh shaharlari bir hudud sifatida ko‘rilgan va ayni damda Kesh mulklari hukmdori tomonidan boshqarilgan. Ammo bu yakka hukmdorlik uzoqqa cho‘zilmaydi va milodiy VI-VII asrlarning o‘zidayoq Naxshab va Kesh shaharlari ikki bo‘linib ketadi. Bu siyosiy jarayonlar haqida zarb qilingan tangalar batafsil ma’lumot beradi. [6] Samarqandda tarqoqlik yuz berayotgan bir paytda Sug‘d markazi Kesh viloyatiga ko‘chirilgan va hukmdorlar tomonidan aversida podsho, reversida esa hukmdorning qilich bilan shersimon maxluqqa qarshilik ko‘rsatayotgani tasvirlangan tangalar zarb etilgan. Yuqorida qayd etilgan parokandalikka ko‘ra, Keshning poytaxtlikka bo‘lgan da’vosi VII asrga kelib kuchayadi. Xususan, Xitoy manbalaridan – “Suy shu” va “Tan shu” lardagi ma’lumotlarga ko‘ra, “VII asrning birinchi yarmida Keshda Ticho ismli hukmdorning hukmdorlik davrida u to‘laqonli markazga aylanadi (600-620-yillar davomida). Keyingi Kesh hukmdori Shashepi ya’ni Shishpir (642-655) davrida Xitoy bilan elchilik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi. Bu dalillar esa Janubiy Sug‘dning mustaqil siyosat olib borilganligidan dalolat beradi. Aynan Shishpir zarb ettirgan tangalarning Panjikentdan topilishi ham VII asrning o‘rtalarigacha Keshning mavqeyi baland bo‘lganligini bildiradi. Kesh haqidagi ilk o‘rta asrlar yozma va moddiy boyliklarning ko‘pligi ham o‘z o‘rnida uning mavqeyidan dalolat beradi. [7]

Barcha davrlardan ham ma’lumki, davlat taroqqiyotida ham , markazning mavqeyi mustahkamlanishida ham ijtimoiy-iqtisodiy, ayniqsa, savdo

munosabatlari alohida o‘rin egallaydi. So‘z yuritilayotgan ushbu davr Keshida ham savdo tarmoqlari rivojlangan bo‘lib, shahar Janubiy Sug‘dning markazi sifatida yo‘llar kesishmasida joylashgan edi. Bu yo‘nalish Sug‘ning janubiy o‘lkalar, jumladan, Toxariston va Hind vohalari bilan olib borilgan savdo-iqtisodiy aloqalarda alohida ahamiyat kasb etgan. Ayni shu davrga kelib, Keshdan Hisor tog‘lari (Toshqo‘rg‘on dovoni) orqali Toxaristonga olib boruvchi yo‘lning faollashgani haqida tarixchilar ta’kidlab o‘tishadi.[8]

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Sug‘d o‘lkasi yurtimiz va mintaqamiz bo‘lmish O‘rta Osiyo tarixi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Miloddan avvalgi I ming yillikda ilk davlatchilik poydevorlari qo‘yilayotgan ayni bir zamonda Sug‘d va uning markazlari taraqqiy etdi. Uning markazlari, xususan, Shahri Kesh ham uzoq tarix davomida va hattoki hozir ham vohamizning tarixiy o‘lkasi sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, Kesh Sug‘d tarixining ajralmas bo‘lagidir. Zero, bu markazdan o‘tgan yo‘llar orqali savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilib, davlatning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini ta’minlagan.

Taklif o‘rnida shuni aytish joizki, davlatchiligimiz tarixini o‘rganish mobaynida Sug‘d tarixi o‘rganish va uning markazlari, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida kengroq ma’lumot to‘plash maqsadida ekspeditsiyalar tashkil qilish, yaqin tumanlarda qidiruv-qazish ishlarini olib borish lozimdir. O‘z navbatida “Kesh tarixi” fan sifatida o‘qitilishi hamda bakalavr bosqich talabalari bilan ekskursiyalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shuningdek, qo‘shni va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, biz uchun mavhumligicha qolayotgan masalalar bo‘yicha amaliy-nazariy seminar-treninglar tashkil qilish maqsadga muvaffaq bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobur G‘oyibov “Sug‘d tarixidan lavhalar”. Samarqand-2020 , 10-15 betlar.
2. A.S.Sagdullayev ”Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar”. (tah.ostida.) Toshkent-1998.
3. Suyun Qorayev “Ozbekiston viloyatlari toponimlari”. Toshkent-2005.
4. Sulaymonova Sohiba “Sug‘d vohasida G‘arbiy Turk xoqonligining boshqaruvi”. Qarshi-2022.
5. G‘aybulla Boboyorov, Bobir G‘oyibov “Sug‘dshunoslikka kirish-I. Sug‘diy til va numizmatika”. Toshkent-2018.
6. Nosir Muhammad “Nasaf va Kesh allomalari”. Toshkent-2006.
7. Azimxo‘ja Otaxo‘jayev “Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari”. Toshkent-2010.
8. Abduqayumov Asror “Sug‘dning ilk o‘rta asrlar davri hunarmandchiligi va savdo-iqtisodiy aloqalari”. Toshkent-2010.

## EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI.

**Tolibov Nurbek Abdigapporovich**

Shahrisabz pedagogika instituti

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

Turizm bugungi kunda muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillardan biriga aylanib ulgurdi. Iqtisodiyotning ushbu sektorida umumiy daromad hajmi trillionlab AQSh dollarini tashkil etmoqda, har yili butun dunyoda bir milliarddan ziyod insonlar sayohat qilmoqda. Amaliy jihatdan har-bir mamalakat yashil sayohat uyushtirish imkoniyatiga ega.

Turizm ko‘p tarmoqli soha bo‘lib, hozirgi kunda uning ekologik turizm yo‘nalishi dam oluvchilar o‘rtasida tobora ommalashib bormoqda. Ekologik turizm tushunchasini birinchi marta 1980 yilda Meksikalik iqtisodchi G.Seballos Lashkursi ishlatgan. Ekologik turizmning asosiy maqsadi sayohat vaqtida yangi joylarni ko‘rish, tabiat 33 go‘zalligidan bahra olish, tog‘ havosidan nafas olish, tabiat qo‘ynida bo‘lish, tarixiy obidalardan zavqlanishdan iborat. Turizmning mazkur shakli dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida, xususan Kanada, AQSh, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya, Xitoy, Markaziy va Janubiy Amerikada yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Ekoturizm sohasi boshqa sohalardan iqtisodiy-ijtimoiy tomondan tubdan farq qiladi. Chunki, ekoturizm sohasi mamlakat xazinasini uchun zarur bo‘lgan valyuta tizimini ta‘minlaydigan, yangi ish o‘rinlarini vujudga keltirish va shu bilan birgalikda aholining turmush darajasini ko‘tarish uchun xizmat qiladigan yangi soha hisoblanadi. Jahon aspektida ushbu tarmoq mahsulot va xizmatlarni eksport qilish jihatidan 3-o‘rinda turadi.

Birlashgan millatlar tashkiloti 2017 yilni Xalqaro Turizm yili deb e‘lon qildi. Bu qaror Xalqaro turizmning nechog‘lik ahamiyatga ega ekani va millatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka xizmat qilishi, davlatlar bir-birining boy madaniy va tarixiy merosi haqida to‘laqonli ma‘lumotga ega bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Fransiya, Italiya, Misr, Malayziya, Tayland, Indoneziya mamlakatlar iqtisodiyotida turizm asosiy daromat manbayi bo‘lib hisoblanadi. Turizm deganda insonlarning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakat, xududda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

O‘zbekistonda ekologik turizmning tog‘ ekoturizmi, tarixiy obidalar ekoturizmi, me'morchilik yodgorliklar ekoturizmi, arxeologik qazilmalar ekoturizmi, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi yo‘nalishlari

bo‘yicha rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Ekologik turizmning rivojlanishi respublikamizda tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni jalb etish, noyob o‘simliklar va hayvonot dunyosini saqlash, ko‘paytirish muammolarini hal qilishga, shu bilan birga aholini ish bilan ta‘minlab iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ekoturistlarning hordiq chiqarish yoki dam olishi faqat tabiat bilan chegaralanib qolmaydi, buning uchun yana turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar (infratuzilma) majmuasi mavjud bo‘lishi lozim.

Turizm infratuzilmasi deganda - turistlarning turistik zahiralardan bemalol foydalanishini ta‘minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan yo‘llar, turizmning xilma – xil korxonalari va ularni kerakli darajada ishlatish, hamda turizm korxonalarining ishlatilishini ta‘minlash tushuniladi. Qadimda buyuk ipak yo‘li o‘tgan joylarda karvonsaroylar bo‘lgan. Karvonsaroylar savdo karvonlari uchun hozirgi vaqtlardagi mehmonxonalar vazifasini o‘tagan [1].

Mamlakatimizda nafaqat dunyoga mashhur, xorijiy sayyohlarni jalb qiluvchi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar, tarixiy yodgorliklar, shu bilan birga, ekoturizm bilan bog‘liq betakror go‘zal tabiat, landshaftlar (sahro, cho‘l-adirlar, tog‘lar, pasttekisliklar), xilma-xil noyob o‘simlik va hayvonot olami, nodir, dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan arxeologik topilmalar, dunyoda kam uchraydigan geologik kesimlar va shunga o‘xshash tabiiy yodgorliklarning 8000 dan ortig‘i mavjud. Bu biz yashab turgan o‘lka tabiati ajoyibotlarga boy ekanligidan dalolat beradi. Zarafshon vodiysida joylashgan dunyoning eng qadimiy shaharlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro shaharlari va Navoiy viloyati hududida joylashgan qadimiy obidalarimiz dunyoning barcha mamlakatlaridagi obidalaridan o‘zining ulug‘vorligi va ko‘rkamligi bilan alohida ajralib turadi. Birgina Samarqand shahrining o‘zida 20 dan ziyod qadimiy ziyoratgohlar joylashgan bo‘lib, ular O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishida benihoya katta ahamiyatga ega. Samarqand shahridagi Registon, Shohizinda, Bibixonim, Amir Temur (Go‘ri Amir), Ulug‘bek rasadxonasi, Tillakori va Sherdor maqbaralari mavjud. Zarafshon vodiysidagi ushbu qadimiy obidalar mahalliy aholi uchun va shahrimiz mehmonlari uchun muqaddas ziyoratgoh joylar hisoblanadi. Surxon vohasi ham ko‘hna tarix va madaniyatga ega. Xususan, ibtidoiy odamlar yashagan g‘orlar va manzillar: Machay qishlog‘idagi Teshiktosh g‘ori, Katta Suluvkamar, Do‘konxona, Amir Temur, Iskandarxon, Darband qishlog‘idagi Temir darvoza, O‘zbekiston va Turkmaniston Respublikalari chegarasida ko‘tarilgan Ko‘hitang tog‘ tizmasining g‘arbiy yonbag‘ridagi Xo‘jayifilota qishlog‘i yaqinidan topilgan dinozavr izlari, (mazkur tizma yonbag‘rida dinozavrlarning toshda saqlanib qolgan 4000 dan ziyod izlari mavjud bo‘lib, ularning umumiy uzunligi 10 km ga yetadi. Eng yirik izlar uzunligi 86 sm, eni 73 sm, qadam orasi esa o‘rtacha 220 sm ni



tashkil etadi. Xo‘jayifilota qishlog‘ining g‘arbiy qismidagi izlar nihoyatda yaxshi saqlangan), Bibishox shotisi, Qo‘rg‘oncha qishlog‘idagi Boybuloq g‘ori shular jumlasidandir. Geografik yodgorliklar ham asosan viloyatning tog‘li qismida to‘plangan bo‘lib, unga ajoyib qoyalar, sharshara va shovvalar, daralar, tangilar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi.

Demak, mana shunday tarixiy, an‘anaviy merosimizni yana tiklash, zamonaviy holatga keltirish ham bugunning asl maqsadidir. Tabiiy - iqlim, tarixiy - madaniy, ma‘rifiy, ijtimoiy - maishiy turizm ob‘ektlari bo‘lgan ushbu hududda kerakli infratuzilmani yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hozir respublikamizning avtomobillar qatnaydigan trassalari, shoh bekatlari qayta ta‘mirlanib kengaytirilmoqda. Ayniqsa, olis, tog‘li joylarga katta yo‘l trassalari, qishloqlarda bu kabi muammolarni hal etish ishlari jadal olib borilmoqda. Turistlarga tez tibbiy yordam beriladigan va boshqa infratuzilma obyektlari ham talab darajasida tashkil etilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, O‘zbekistonda ekologik turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud. Lekin, ushbu maqsadga erishmoq uchun mavjud geografik yodgorliklar haqida ma'lumot beradigan o‘quv, ilmiy-ommabop qo‘llanmalar, xizmat ko‘rsatish va servis imkoniyatlarini kengaytirishga oid dastur va rejalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiiq etish bugungi kunning muhim masalasidir. Ekoturizmni rivojlantirish borasidagi asosiy vazifalar yurtimizning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida, nafaqat xorijiy sayyohlarni ona Vatanimizning landshafti, hayvonot va nabotot dunyosi, boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, balki xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini bog‘lashdan iborat.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdiqulova M. Ekoturizmnda xizmat ko‘rsatish sohasini tashkil etishning ba‘zi jihatlari // O‘zbekistonning biogeoeologik muammolari: Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjumani materiallari. Termiz 15 mart, 2016 y. –B. 286.
2. Nig‘matov A., Shamuratova N. O‘zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi. Ekologiya xabarnomasi. 2007, №2, 40-49 b.
3. Vahobov H., Yakubov O‘. Rekreatsion geografiya asoslari. T.- 2008
4. Sherov A. Ekologik turizm taraqqiётga xizmat qiladi // Ekologiya xabarnomasi № 10 (186)2016 yil 2- B
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Respublikada turizm sohasini barqaror rivojlantirish rejalarini belgilashll to‘g‘risidagi PF4058-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljalangan Xarakat dasturi.// —Xalq so‘zil gazetasi, 2015 yil

**“O‘ZBEKISTONDA ZIYORATGOH VA QADAMJOLAR,  
TURIZM XIZMATLARINI JADAL RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI”**

**Suyarqulov Nizomiddin Maxmatqulovich**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Geografiya” kafedresi Geografiya fani o‘qituvchisi.

Elektron pochta manzili: [nizomiddin-suyarqulov@mail.ru](mailto:nizomiddin-suyarqulov@mail.ru)

**Oltinov Laziz Ikrom o‘g‘li.**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari»

yo‘nalishi 3-bosqich 2-21-guruh talabasi.

Elektron pochta manzili: [oltinovlaziz@gmail.com](mailto:oltinovlaziz@gmail.com)

**Annotasiya:** Ushbu maqolada bugungi kundagi eng serdaromad sohalardan biri bo‘lmish, xizmat ko‘rsatishning turizm tarmog‘i, jahon turizmi, O‘zbekistonning turistik salohiyati, bu boradagi afzalliklar va kamchiliklar hamda ularning yechimi sifatida taklif va mulohazalar o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, xizmat ko‘rsatish, jahon xo‘jaligi, agrar, industrial, postindustrial, sektor, YaIM, YuNESKO, mentalitet, madaniyat.

**Annotation:** this article covers one of the most productive areas today, the tourism sector of services, World Tourism, the tourist potential of Uzbekistan, the advantages and disadvantages in this regard, as well as suggestions and considerations as their solution.

**Keywords:** tourism, service, world economy, agrarian, industrial, post-industrial, sector, GDP, UNESCO, mentality, culture.

**Аннотация:** В данной статье представлены предложения и соображения, касающиеся туристической отрасли обслуживания, мирового туризма, туристического потенциала Узбекистана, преимуществ и недостатков, а также их решений, которые сегодня являются одними из самых прибыльных.

**Ключевые слова:** туризм, сервис, мировое хозяйство, аграрный, индустриальный, постиндустриальный, отраслевой, ВВП, ЮНЕСКО, менталитет, культура.

**O‘zbekistonning zamonaviy iqtisodiyoti –  
samarali ishlabchiqarish bilan birga  
xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojiga  
asoslangan iqtisodiyot bo‘lmog‘i zarur.**

## SHavkat Mirziyoyev

**Turizm!** Insoniyat tamaddunining rivojlanishiga o‘ziga xos turtki bo‘lgan deyish mumkin. Chunki, biz bilamizki, yer yuzida sivilizatsiyaning paydo bo‘lishi va bilvosita tarqalishi ma’lum ma’noda sayyohlar va dengizchilarning yangi-yangi yerlarga qilgan sayohatlari bilan bog‘liq.

Bugungi kunda O‘zbekistonga tashrif buyuruvchilar oqimini ko‘paytirish, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, - “Turizm – O‘zbekiston iqtisodiyotining drayveri”, - bo‘lishi, yanada ko‘proq islohotlar olib borish bilan birgalikda, albatta, amaliy harakatlarni taqozo etadi [1].

Biz bilamizki, har bir davlat o‘zining tabiiy sharoit va resurslar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda jahon xo‘jaligining ma’lum bir tarmog‘iga ixtisoslashadi. Aynan mana shu ixtisoslashuv uning rivojlanishini ham belgilab beradi desak bo‘ladi. Jahon xo‘jaligining rivojlanishida uning asosiy tarmoqlari katta ahamiyatga ega. Jahon xo‘jaligini “ ... mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish xususiyatlariga qarab bir necha sektorlarga ajratish mumkin. Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, ovchilik, tog‘-kon sanoati birlamchi sektor tarkibiga kiradi. Bu sektor tarmoqlari, asosan, sanoat uchun zaruriy xomashyoni yetkazib beradi. Ikkilamchi sektor tarmoqlari (qayta ishlovchi sanoat va qurilish) tayyor mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, aholi va korxonalariga xizmat ko‘rsatish uchlamchi sektorning asosiy vazifasi hisoblanadi. To‘rtlamchi sektor tarmoqlari esa yangi bilim, ilmiy-texnik va texnologik ishlanmalarni yaratish va amaliyotga tatbiq qilish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlab beradi “ [2]. Mamlakatlarning guruhlanishi iqtisodiyoti mana shu sektorlarning qaysi biriga ixtisoslashganligi bilan xarakterlanadi. «Senegal agrar, Braziliya industrial, GFR postindustrial, O‘zbekiston industrial-agrar, Kambodja agrar-industrial davlatlarga misol bo‘la oladi» [3].

Yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarning bugungi kundagi eng tez rivojlanayotgani va eng serdaromad sohalaridan biri xizmat (aloqa va axborotlashtirish; moliyaviy; transport; ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar; maishiy va boshqa xizmatlar) ko‘rsatish va uning asosiy tarmog‘i hisoblanmish turizm hisoblanadi. Qayd etish joizki, xizmat ko‘rsatishni bugungi kunda eng foydali sohalardan bo‘lishiga o‘z navbatida turizmning o‘rni beqiyos. Joiz bo‘lsa turizmni - xizmat ko‘rsatishni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lganligi bois postindustrial davlatlar iqtisodiyotining “qon tomiri” desak bo‘ladi.

“Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko‘p ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi» [4].

Butunjahon **YaIM** ning 11 % ini tashkil etganligi va xalqaro turizmdan tushadigan

daromadning 400 mlrd dollarga yetganligining o‘zi bu tarmoqning jahon iqtisodiyotidagi mavqegini belgilab beradi. Shuningdek, dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida ham xizmat ko‘rsatishning asosiy tarmoqlaridan bo‘lmish - turizmning o‘z o‘rni bor va bu borada ayniqsa, so‘nggi yillarda uzoqni ko‘zlagan islohotlar olib borilishi, kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalasining alohida joy olganligi bejiz emas. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarda rivojlantirish uchun qabul qilingan «**Taraqqiyot strategiyasi**» ning 35-maqjadi, yanayam aniqrog‘i, oltinchi «Madaniyat, sport va turizmni yanada rivojlantirish» bandining «Turizm sohasini va yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish» ga bag‘ishlangan bo‘limini so‘zimizning yorqin ifodasi sifatida alohida qayd etish lozim.

Dunyoning rivojlangan, xususan, Yevropa davlatlarining ko‘pchiligida xizmat ko‘rsatishning turizm yo‘nalishi yaxshi rivojlangan. “Yevropa turizm yuqori darajada rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Fransiyaga yiliga 70 mln. dan ortiq, Italiya va Ispaniyaga 50-60 mln. kishi turistik sayohat qiladi. Shveysariya, Portugaliya, Germaniya, Avstriya, Buyuk Britaniya, Gretsiya va boshqa mamlakatlar jahonning yirik turistik markazlari hisoblanadi” [5]. Bu ko‘rsatkichlar kundan – kunga ortishini kuzatishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, turizm sohasida yurtimiz O‘zbekistonning yer yuzining suvlik muhitidan ancha uzoqligiga qaramasdan, o‘ziga xos afzalliklari ham mavjud. Binobarin, so‘nggi ma‘lumotlarga qaraganda, yiliga 75 mln sayyohlarga mezbonlik qiluvchi Fransiya davlatining turistik obyektlar soni O‘zbekistonnikichalik ko‘p emas, aslida. Ma‘lumotlarga qaraganda, turizmdan tushadigan daromad bo‘yicha AQSH Fransiyani ortda qoldiradi. Sababi shundaki, AQSH ning turistik obyektlar soni Fransiyanikidan juda ko‘p. Natijada, borgan turist ko‘proq qoladi va shunga mutanosib ravishda yana ham ko‘proq mablag‘ sarflaydi. O‘zbekiston hududida ham turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega 8,2 mingta madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, shundan 209 tasi Xiva shahridagi Ichan qal‘a, Buxoro, Shahrisabz hamda Samarqand shahri hududida joylashgan. E‘tiborga molik tomoni, bu obyektlar **YuNESKO** ning Butunjahon merosi ro‘yxatidan joy olgan.

“O‘zbekistonda mahalliy va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta. Samarqandning Shohi Zinda, Registon, Go‘ri Amir, Bibixonim madrasasi, Buxoroning Labi Hovuz, Ark, Minorai Kalon, Bahouddin Naqshband, Ismoil Somoniy kabi obidalari, madrasa va ziyoratgohlari, Surxondaryoning At-Termiziy, Childuxtaron va boshqa qadimiy joylari, Toshkentning Ko‘kaldosh madrasasi, diniy va hozirgi zamonaviy hashamatli binolari, Samarqand viloyatining Maxdumi A‘zam, Imom Buxoriy majmuasi, Toshkent viloyatining Zangiota maqbarasi, Xivaning Ichan qal‘asi, Qoraqalpog‘istonning Sulton Uvays

bobo majmuasi kabilar diniy turizm rivojlanishining muhim obyektlari hisoblanadi “ [6]. Shuningdek, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda **Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Qarshi, Shahrisabz, Nukus** va boshqa shaharlardan tashqari, go‘zal va xushtabiat tog‘ landshaftlari, vodiylar, daryo va ko‘llar, chinorlar, g‘orlar va boshqa tabiatning jonli va jonsiz tilsimotlaridan foydalanib, qishloq hududlarida ham agroturizm va ekoturizmni yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu borada, bizga mentalitetimizga xos bo‘lgan madaniyat va san‘at, ayniqsa, turli hunarmandchilik buyumlari, turmush tarzimiz kabilar ham yordam beradi.

Biz dunyoning rivojlangan davlatlarining bugungi imidjiga nazar tashlar ekanmiz, ularda nafaqat, moliya yoki xizmat ko‘rsatish, balki, deyarli barcha sohalarida zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu davlatlarda rivojlanish go‘yo, “Jamiyatni axborotlashtirish davrida **AR** (axborot resurslari) shakllantirish va ishlab chiqarish o‘ta muhimdir “ prinsipi ustida qurilgandek [7].

Turizmni rivojlantirishda moliya tizimining ham alohida o‘rni bor. “Milliy iqtisodiyotda moliya tizimi va moliyaviy siyosat asosiy o‘rin tutadi. Sababi jamiyatning ravnaqi, aholining farovonligi, yurtning tinchligini ta‘minlash va boshqa maqsadlarni amalga oshirish - hammasi moliyaga borib taqaladi “ [8]. Jamiyatimizda fuqarolarga yaratilgan bu kabi qulayliklardan o‘z navbatida, xorijlik sayyohlarning ham bahramand bo‘lishi va ularning mazmunli hordiq chiqarishlari hamda turistlar oqimining ko‘payishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish - turistlarni qiziqtiradigan yangi-yangi kontentlarni yaratish; ularni yurtimizda ko‘proq olib qolish uchun turli xil qiziqarli festivallar va madaniyat tadbirlarini tashkil etish; mehmonxona va aeroportdagi xizmat ko‘rsatish sohasini xalqaro standartlarga moslashtirish; turistik obyektlarimiz qatnashgan reklama roliklari ayniqsa, seriallar tasvirga olib, xalqaro telekanallarda qo‘yilishini ta‘minlash; turoperatorlarni yanada ko‘paytirish; infratuzilmalarni yanada zamonaviylashtirish; samolyot va poyezd biletlarini bir necha oy oldin olishdagi noaniqliklarni bartaraf etish kabi masala va muammolarni hal etishni taqozo etadi.

Ma‘lumki, Yer sayyorasining «yashil o‘pkasi» hisoblanmish o‘rmon resurslari va suv havzalarimiz maydoni unchalik katta maydonni egallamaydi. Biroq, ularning mavjudlaridan xususan, milliy tabiat bog‘laridan oqilona va samarali foydalanish turizmni rivojlantirishning muhim omili sanaladi.

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini sifat nuqtai nazardan yuqori pog‘onalarga ko‘tarish esa, o‘z navbatida, bu soha bo‘yicha yosh kadrlarni o‘qitib, tayyorlash bilan bo‘ladi.

Yurtimizda bo‘lib qaytayotgan sayyohlarning fikr va takliflarini turli so‘rovnomalar orqali aniqlash ham turizmdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishda samarali usul hisoblanadi.

Bugungi tez sur‘atda rivojlanayotgan davrda hech bir sohani xossatan, turizm tarmog‘ini unutishga haqqimiz yo‘q. Har bir davlatda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonning ham faxrlanib olamga ko‘z-ko‘z etadigan maskanlari borligi aniq. Endilikda, biz mana shu afzalliklardan foydalanib, ularni dunyoga tanitgan holda, turistlar oqimini ko‘paytirishimiz lozim.

Hech narsaga birdan erishib bo‘lmaydi. Turizm sohasini ham boshqa tarmoqlar singari rivojlantirib borish, xalqaro talablarga to‘la-to‘kis javob beruvchi infratuzilma va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish davlatimiz oldida turgan bugungi kundagi bosh vazifalardan biri desak, bo‘ladi va bu borada tizimli islohotlar olib borilayotgani ham hech kimga sir emas. Yurtimizga tashrif buyuruvchilarning soni yildan-yilga ortib borayotganining o‘zi bu islohotlarning nechog‘li, odilona olib borilayotganining asoschisidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ”Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. Shavkat Mirziyoyev. “O‘ZBEKISTON” Toshkent -2023. 176-bet.

2. ”Geografiya” Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik. V.N. Fedorko, N.I. Safarova, J.A. Ismatov, E.Y. Nazaraliyeva. Toshkent – 2022. 45-bet.

3. “Geografiya” (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. A.Qayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva, V.Fedorko. TOSHKENT - 2019. 41-bet/74-bet.

4. [www.president.uz](http://www.president.uz)

6. ”O‘zbekiston geografiyasi” (O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). A. Soliyev. TOSHKENT <<UNIVERSITET>> 2017. 88-bet.

7. “Axborot tizimlari va texnologiyalari”. S.S.G‘ulomov, R.X.Alimov, X.S.Lutfullayev, A.T.Shermuxeamedov, G.G.Nazarova, Q.A.Alimov, S.Yu.Xodiev, B.A.Begalov, Sh.X.Xoshimxodjaev, A.S.Kucharov, D.Rasulov. TOSHKENT 2000. 76-bet.

8. “Iqtisodiyot nazariyasi”. D.Tojiboyeva. <<SHARQ>> NASHRIYOT MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI. TOSHKENT - 2003. 176-bet.

#### O‘ZBEKSTONDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Jumayev Xayrulla Xayitovich**

G.f.f.d. (PhD), dotsent

“Yangi O‘zbekistonda milliy turizm istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Qarshi davlat universiteti

[jumayevgeog@mail.ru](mailto:jumayevgeog@mail.ru)

Turizm sohasi butun dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun turizm sohasi katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotida 2022 yilda dunyo bo‘yicha 963 million sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2023 yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1,3 milliardga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2023 yilda qariyb 1,4 trillion AQSH dollarini tashkil qilgan, bu 2019-yildagi 1,5 trillion dollarning qariyb 93 foizini tashkil etadi.


2022 yilda UNWTONing so‘nggi reytingiga asoslanib, LinDeal jamoasi xalqaro sayyohlar kelishi uchun eng yaxshi 10 ta yetakchi davlatlarni e‘lon qildi, bu davlatlarga Frantsiya (80 mln. kelgan), Ispaniya (71,6 mln.), AQSh (50,8 mln.), Turkiya (50,4 mln.), Italiya (49,8 mln), Meksika (38,3 mln), Buyuk Britaniya (30,5 mln), Germaniya (28,4 mln.), Gretsiya (27,8 mln.) va Avstriya (26,2 mln.) kabi davlatlar kiradi.

Global demografiyaga ixtisoslashgan “World Population Review” portali tahlilchilari 2023-yilda dunyoning eng ko‘p turistlar tashrif buyurgan mamlakatlari reytingini tuzib chiqdi: Fransiya - 89,4 mln., Ispaniya - 83,7 mln, AQSh - 79,3 mln, Xitoy - 65,7 mln, Italiya - 64,5 mln, Turkiya - 51,2 mln, Meksika - 45 mln, Tailand - 39,8 mln, Germaniya - 39,6 mln va Buyuk Britaniyaga - 39,4 mln. turistlar tashrif buyurgan.

Xalqaro turizm 2023 yilni pandemiyadan oldingi ko‘rsatgich darajaning 88 foizi bilan yakunladi, UNWTONing yilning birinchi Jahon sayyohlik barometriga ko‘ra, xalqaro tashriflar 1,3 milliard sayyohni tashkil etdi. UNWTO Jahon sayyohlik barometrining so‘nggi ma’lumotida sektorning 2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berilgan bo‘lib, u global mintaq, submintaqa va yo‘nalish bo‘yicha tiklanishni kuzatish imkonini beradi. Asosiy ma’lumotlar quyidagi 1-rasmda berilgan.

Yaqin Sharq mintaqasi pandemiyadan oldingi darajadan yuqori bo‘lgan yagona mintaq sifatida nisbiy jihatdan tiklanishda etakchilik qildi, kelganlar soni 2019 yilga nisbatan 22 foizga yuqoriladi.

Dunyoning eng ko‘p tashrif buyuriladigan mintaqasi bo‘lgan Yevropa mintaqasi ichidagi talab va AQShdan kelgan sayohatlar tufayli 2019 yilning shu davriga nisbatan 94 foizga yetdi. Afrika pandemiyadan oldingi darajaning 96 foiziga, Amerika esa 90 foizga yetdi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bir nechta bozorlar va yo‘nalishlar qayta ochilgandan so‘ng, pandemiyadan oldingi darajaning 65 foiziga etdi. Biroq, ko‘rsatkichlar aralash: Janubiy Osiyo allaqachon 2019 darajasidan 87 foizga tiklandi va Shimoliy-Sharqiy Osiyo taxminan 55 foizga tiklandi.



Source: World Tourism Organization (UNWTO) - % change over 2019 | \*Preliminary figures  
Data as collected by UNWTO, January 2024. Published: 19/01/2023

### 1-rasm. Xalqaro sayyohlarning kelishi (2019 yilga nisbatan foizda o‘zgarish) [7].

UNWTONing so‘nggi ma‘lumotlari ham iqtisodiy tiklanishning iqtisodiy ta‘sirini ta‘kidlaydi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2023 yilda xalqaro turizm daromadlari 1,4 trillion dollarni tashkil etadi, bu 2019 yildagi 1,5 trillion dollarning qariyb 93 foizini tashkil etdi. 2023 yilda turizmdan jami eksport tushumi (yo‘lovchi tashishni hisobga olgan holda) 1,6 trillion AQSh dollarini tashkil etadi, bu 2019-yilda qayd etilgan 1,7 trillion AQSh dollarining deyarli 95 foizini tashkil etadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm yalpi ichki mahsuloti bilan o‘lchanadigan turizmning iqtisodiy hissasining dastlabki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2023 yilda 3,3 trillion AQSh dollari yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil qiladi. Bu kuchli ichki va xalqaro turizm tufayli pandemiyadan oldingi tiklanishdan dalolat beradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, turizm sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.



Turizm sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biridir. Chunki dengizlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati bo‘lmagani uchun mamlakat yuklarni tashishda katta xarajatlarga olib keladi, shuning uchun ham yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan bu xizmat ko‘rsatish sohasi O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga egadir.

Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda O‘zbekistonga 6,7 million xorijiy fuqaro turizm maqsadida kelgan. Bu ko‘rsatkich 2022 yilning shu davriga nisbatan 1,4 mil. kishiga yoki 26,6 foizga ko‘paygan. 2023-yilda O‘zbekistonga turizm maqsadida eng ko‘p tashrif buyurgan mamlakat fuqarolaridan, jumladan, Tojikiston - 2155,2 ming, Qirg‘iziston - 1757,1 ming, Qozog‘iston - 1333,3 ming, Rossiya - 714,3 ming, Turkiya - 106,5 ming, Turkmaniston - 100,3 ming turistlar tashrif buyurgan.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda jahon turizm bozori uchun o‘z iqtisodiyotini eng faol rivojlantirayotgan dunyodagi yetakchi o‘nta davlat qatoridan birinchi o‘rinni egalladi. Shuningdek, turizm iqtisodi rivojlangan 10 ta davlat qatoriga Albaniya, Saudiya Arabistoni, Indoneziya, BAA, Misr, Salvador va Afrikaning uchta davlati kiradi. Besh yil davomida turizm bozoriga AQSH, Ispaniya, Yaponiya, Fransiya, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Italiya va Shveysariya tomonidan eng katta hissa qo‘shilgan.

Amerikaning “Travel Lemming” onlayn-gid portali ma‘lumotlari bo‘yicha 2023 yilda dunyoning eng yaxshi 50 ta sayyohlik yo‘nalishi ro‘yxatiga O‘zbekistonni kiritdi va mamlakatimizni 9-o‘ringa qo‘ydi.

2023 yilgi jahon mamlakatlar turizm reytingi bo‘yicha O‘zbekiston 30 - o‘rinda, 6,7 mln. turistlari tashrif buyurgan va jahon turizm oqimining 0,7 foizini tashkil qilgan. “Lonely Planet” xalqaro nashriyot uyi reytingida O‘zbekiston vizasiz kirish va sayohat qilish qulayligi bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishi deb topildi. “The Economist” jurnali O‘zbekistonni so‘nggi bir necha yil ichida amalga oshirilgan islohotlar tufayli Markaziy Osiyodagi eng barqaror rivojlanayotgan davlat sifatida tan oldi. Bularning barchasi, shuningdek, boy tarix va ajoyib oshxonasi O‘zbekistonni mashhur sayyohlik maskaniga aylantiradi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimizni xorijlik sayyohlar uchun tobora ochiq va jozibador manzilga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani. 65 davlatdan kelgan sayohatchilar uchun 30 kunlik vizasiz rejim joriy etildi va 77 davlat fuqarolari uchun elektron vizalar berish tizimi soddalashtirildi.

“Forbes” jurnali 2024-yilda sayyohlar tashrif buyurishi kerak bo‘lgan qiziqarli joylar haqida maqola e‘lon qildi va O‘zbekistonni eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishlari ro‘yxatiga kiritdi. “O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘li davrining eng

yaxshi saqlanib qolgan tarixiy obidalarini, shuningdek, ulug‘vor tog‘larni va O‘zbekistonning istiqbolli poytaxti Toshkentni taklif etadi”. Shuningdek, mamlakatimiz hududlari bo‘ylab sayohat qilish uchun qulay va arzon poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgani qayd etilgan. Amerikalik sayohatchilar uchun Nyu-Yorkdan O‘zbekistonga haftalik bir necha to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar mavjud. Shuningdek, Seul va Istanbul orqali tranzitlar sayyohlar uchun qulaylik yaratadi.

Hozirda dunyodagi barcha ish o‘rinlarining 8-10 foizi turizm bilan bog‘liq bo‘lib, kichik va o‘rta biznes uchun keng imkoniyatlar ochadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini oshirish bo‘yicha bir qancha ishlar va qarorlar qabul qilindi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-135-son Qarori va boshqa qarorlarni misol keltirish mumkin.

Yurtimiz jahon turizm bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi hali ham pastligicha qolmoqda.

O‘zbekistonda turizmni rivojlanishi bilan birga, tarmoqda ayrim muammolar ham uchrab turadi. Jumladan, turizm infratuzilmasining etishmasligi, O‘zbekistonning ayrim shahar va viloyatlarida mehmonxonalar va restoranlarning yetishmasligi, sayyohlik obektlarida transport xizmatlari kabi turizm infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatining pastligi yoki cheklanganligini ko‘rish mumkin.

Hududlarda nisbatan past internet tezligi. O‘zbekistonning hamma hududlarida ham yuqori tezlikdagi internet bilan ta‘minlanmagan, ayrim hududlarda esa yuqori tezlikdagi internet qamrovi deyarli umuman yo‘q.

Turistik obektlarning ingliz tilida ma'lumotlar yo‘qligidir. Ba'zi hududlarda mahalliy aholi, jumladan, turizm sohasi vakillari ham ingliz tilini bilish darajasi ancha past ko‘rsatgichga ega ega bo‘lib, bu xorijlik sayyohlarni olib yurish uchun muammolar to‘g‘dirib kelmoqda.

Dronlar va uchuvchisiz uchish apparatlarini olib kirishga cheklovlar, suratga olish va videoyozuvlarni taqiqlash. Oxirgi bir necha yil ichida qonunlarni bilmasliklari tufayli respublikaga uchuvchisiz qurilmalarni olib kirishga uringan xorijlik sayyohlar bilan bir qancha voqealar yuz berdi.

O‘zbekistonga charter reyslarning yo‘qligi, mahalliy aviareyslarning kamligi yoki nisbatan qimmat aviachiptalar. Bu ham xorijiy va mahalliy turistlarning harakatlanishida ancha qiyinchiliklar to‘g‘dirmoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni yurtimizga ohanrabodek jalb qilish uchun ancha ishlar qilishga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston juda katta tarixiy-madaniy merosga - 8000 dan ortiq tarixiy-madaniy va arxeologik obidalariga ega. Ularning ko‘pchiligi Samarqand, Qashdqadaryo, Buxoro va Toshkent viloyatlariga hamda Samarqand Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy-madaniy yodgorliklar va obidalar UNESCOning butun jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Nahotki mamlakatimizda shuncha boy tarixiy va madaniy meroslarimiz bo‘la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Misol uchun birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyuradi.

O‘tgan 2023 yil 6,7 mln. nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Oldingi yilga nisbatan 27 foizga o‘sgan (2022 yilda - 5,2 mln kishi). Turistlarning asosiy oqimi (79 foizi) qo‘shni mamlakatlar - Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Odatda ushbu davlatlardan aksariyat sayyohlar qarindoshlarni yo‘qlash, davolanish, o‘qish va savdo qilish maqsadida tashrif buyuradi. 2023 yilda jami xizmatlar eksportida safar xizmatlari ulushi 41 foizga yetib, 2,1 mlrd dollarni tashkil qilgan.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi, jumladan, mehmonxonalar hali ham yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Bu borada yana Parijga “murojaat” qiladigan bo‘lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4500 tani tashkil etdi. Bizda esa bu ko‘rsatkich respublika miqyosida 4 barobarga past, ya’ni, yurtimiz bo‘yicha atigi 1088 ta mehmonxonalar mavjud. Hududlar kesimida mehmonxonalar soni bo‘yicha Toshkent shahri - 243 ta, Buxoro viloyati - 193 ta, Samarqand viloyati - 149 ta va Toshkent viloyati - 109 ta mehmonxonalar mavjud.

Ma’lumotlarga ko‘ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko‘rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 810 tani tashkil etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go‘zal dam olish maskanlari salohiyatidan unumli foydalanib, yangi turistik yo‘nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, ziyorat turizmi, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik turizm turlari va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Bu borada davlat-

xususi sheriklik munosabatlarini qo‘llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olish lozim.

Mamlakatimiz hududlaridagi jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolari va yodgorliklarini ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish maqsad muvofiqdir.

Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar qatorida turizmga ham katta e‘tibor qaratishi bu sohada ko‘zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralari jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. O‘zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak.

Hozirki kunda xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston haqida ko‘proq ma‘lumotlarni targ‘ibot qilishda oqsoqlikka yo‘l qo‘yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O‘zbekiston haqida aholida yetarlicha ma‘lumot yo‘q. Ular aynan ma‘lumotlarni turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.

Dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan buyuk sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur barpo etgan qudratli saltanatining dovrug‘i o‘rta asrlarda butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Shunday ekan, o‘sha saltanatning bugungi zamonaviylik kasb etgan ko‘rki va tarovatini yanada kengroq targ‘ib qilish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish va kuchaytirish, xorijlik sayyohlarni yanada kengroq jalb etish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-135-son Qarori

2. Жумаев Х.Х., Назаров М.И. Комплексная оценка природно-климатических ресурсов Кашкадарьинской области для целей развития туризма и рекреации //Центральноазиатский журнал географических исследований № 3-4, 2023. С. 119-132.

3. Жумаев Х.Х. Проблемы развития гостиничной инфраструктуры в Кашкадарьинской области // Экономика и социум. (ISSN 2225-1545), №11(113)-1 2023. С.714-720.

4. Жумаев Х.Х., Элмонов Л.Н. Динамика развития и территориальный состав автомобильного транспорта в Кашкадарьинской области. // Экономика и социум. (ISSN 2225-1545), №12(115)-1 2023. С.1093-1098.

5. Жумаев, Х.Х., & Ашуров О. (2024). Развитие международного туризма в Индии и ее туристический потенциал. Educational research in universal sciences, 3(1), с. 184-191. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10628979>

6. <https://www.atorus.ru/node/54749>

7. <https://www.unwto.org/news/international-tourism-to-reach-pre-pandemic-levels-in-2024>

8. <https://vestikavkaza.ru/news/uzbekistan-vozglavil-mirovoj-rejting-stran-aktivno-razvivausih-turizm-vef.html>

9. <https://uzbekistan.travel/ru/o/uzbekistan-zanyal-9-e-mesto-srediluchshih-mest-dlya-puteshestvij-v-2023-godu-po-versii-zhurnala-travel-lemming/>

10. <https://uza.uz/uz/posts/uzbekistan-luchshee-turisticheskoe-napravlenie-2023-goda 420324>

11. <https://asiamedium.com/forbes-узбекистан/>

## ВАЖНОСТЬ ТУРИЗМА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

**Бахритдинова Дилобар Зайнитдиновна**

*Старший преподаватель кафедры ШГПИ*

**Хакназарова Чарос Ураловна**

*ШДПИ Студентка 2 курса Начального образования*

**Аннотация:** Туризм, как образовательный инструмент, играет значимую роль в развитии детей младшего школьного возраста. В начальной школе туризм может предложить уникальные возможности для обучения, способствующие не только академическому, но и личностному развитию учащихся. В этом докладе будут рассмотрены различные аспекты важности туризма в начальной школе, включая образовательные, социальные и культурные преимущества.

**Ключевые слова:** Образовательные преимущества туризма, Социальные преимущества туризма, Культурные преимущества туризма, Экологические преимущества туризма, Психологические преимущества туризма, Экономические преимущества туризма

### **Образовательные преимущества туризма**

Туризм предоставляет детям возможность участвовать в интерактивных образовательных мероприятиях. Посещение музеев,

исторических мест и природных парков позволяет детям погружаться в предметы, которые они изучают в классе. Такое обучение значительно повышает усвоение материала и делает его более увлекательным. Посещение новых мест помогает детям расширить свои горизонты и увидеть мир вне привычной школьной обстановки. Это способствует развитию критического мышления и любознательности, побуждая учащихся исследовать и задавать вопросы о мире вокруг них.

Туризм позволяет детям применять знания, полученные в классе, на практике. Например, экскурсия в лес может быть связана с изучением биологии, а посещение исторического музея - с уроками истории. Практическое применение знаний помогает укрепить их в памяти и понять реальную значимость изучаемых предметов.

Совместные туристические поездки способствуют укреплению командного духа среди учащихся. Работа в группах, совместные игры и обсуждения помогают развивать навыки сотрудничества, уважения к мнению других и умение работать в команде.

Туризм предоставляет возможности для развития социальных навыков, таких как коммуникация, решение конфликтов и лидерство. Взаимодействие с одноклассниками и взрослыми в непринужденной обстановке позволяет детям учиться эффективно общаться и сотрудничать. Туристические мероприятия способствуют развитию таких личностных качеств, как самостоятельность, ответственность и уверенность в себе. Дети учатся принимать решения, следить за своим поведением и проявлять инициативу в новых и неизвестных ситуациях.

Туристические поездки позволяют детям знакомиться с культурным наследием своего региона и страны. Посещение исторических мест, памятников культуры и архитектуры помогает понять и уважать историю и культуру своей Родины. Знакомство с различными культурами и традициями способствует развитию толерантности и понимания к другим народам и их образу жизни. Это особенно важно в современном мире, где мультикультурализм становится нормой.

Посещение художественных выставок, театров и концертов способствует обогащению эстетического восприятия детей. Они учатся ценить красоту искусства, что развивает их творческое мышление и чувство прекрасного.

Туризм в природные заповедники и парки помогает воспитывать у детей экологическую ответственность. Они учатся бережному отношению к природе, узнают о важности сохранения экосистем и о влиянии человеческой деятельности на окружающую среду. Экскурсии на природу предоставляют

возможность для получения практических экологических знаний. Дети могут изучать флору и фауну, понимать процессы экосистем и видеть реальные примеры экологических проблем и их решений.

Туризм оказывает положительное влияние на психическое здоровье детей, снижая уровень стресса и напряжения. Путешествия и пребывание на свежем воздухе способствуют расслаблению, улучшению настроения и общему самочувствию.

Туристические поездки помогают развивать эмоциональный интеллект, учат детей понимать и управлять своими эмоциями, а также сочувствовать другим. Это важно для формирования здоровых межличностных отношений и эмоциональной устойчивости. Новые впечатления и опыт, полученные во время путешествий, способствуют повышению уверенности в себе. Дети учатся справляться с новыми вызовами, что помогает им чувствовать себя более уверенно в разных жизненных ситуациях.

Туристические мероприятия способствуют стимулированию местной экономики, особенно в малых городах и сельской местности. Школьные экскурсии и поездки поддерживают местный бизнес, создают рабочие места и способствуют развитию инфраструктуры. Туризм помогает детям понять взаимосвязь между образованием и экономикой. Посещение различных предприятий, ферм и производств позволяет увидеть на практике, как знания и навыки используются в реальном мире и влияют на экономическое развитие.

### Заключение

Туризм в начальной школе является важным инструментом для всестороннего развития детей. Он способствует образовательному, социальному, культурному, экологическому и психологическому развитию, а также стимулирует местную экономику. Включение туристических мероприятий в школьную программу помогает детям не только получать знания, но и развивать важные навыки и качества, которые будут полезны им в будущем. Поэтому важно уделять внимание организации качественных и безопасных туристических поездок для учащихся начальной школы, чтобы они могли максимально воспользоваться всеми преимуществами, которые предоставляет туризм.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Биржаков М.Б., Казаков Н.П. Безопасность в туризме.- СПб.:2006.
2. Истомин П.И. Туристическая деятельность школьников: вопросы теории и методики. 1987.

3. Кокоров Ю.М. Методические рекомендации по внеклассной работе в туризме .М. 1980.
4. Константинов Ю.С. Детско-юношеский туризм. Учебно-методическое пособие-М. ФЦДЮТик, 2006.
5. Курилова В.И. «Туризм» учебное пособие для педагогических институтов. М. 1988.
6. Макаревич Э.А. Туристические походы выходного дня .С-Пб. 1990.
7. Симаков В.И. Туристические походы выходного дня.- М.: Россия, 1984.
8. Туризм в сельской школе, физическая культура в школе №5, 2005.
9. Электронный ресурс: режим доступа: <http://festival.1september.ru/articles/214256/>.

## IMOM BUHORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA

**Otamurodov Doniyorbek Odilboy o‘g‘li**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

1-bosqich talabasi

**Annotatsiya :** Mazkur maqolada Buxoroda tug‘ilib, butun islom olamida hadis ilmining sultoni deya ta’rif olgan Imom al- Buxoriyning hayoti haqida so‘z boradi. Maqolada Imom al- Buxoriyning ilm yo‘lidagi safarlari va hayoti davomida ro‘y bergan mo‘jizali voqealar to‘g‘risida hikoya qilinadi. Maqolada Imom al- Buxoriyning qoldilgan ilmiy me’rosining qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida va hozirgi kunda islom olamida vujudga kelgan muammolarni hal qilishdagi ahamiyati dalillar orqali yoritilib beriladi. Maqoladagi ma’lumotlarning sahligini ta’minlash maqsadida xorijiy nashrlarda chiqqan adabiyotlar va mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan adabiyotlarga murojaat etiladi. Olimning sermahsul ijodini yoritish maqsadida hadislardan na’munalar keltiriladi.

**Abstract:** This article talks about the life of Imam al-Bukhari, who was born in Bukhara and was described as the Sultan of Hadith science in the whole Islamic world. The article tells about the journeys of Imam al-Bukhari on the path of knowledge and the miraculous events that happened during his life. In the article, the importance of Imam al-Bukhari's scientific heritage and its importance in solving the problems that have arisen in the Islamic world are highlighted through evidence. In order to ensure the accuracy of the information in the article, we refer to the literature published in foreign publications and the literature written by local



historians. Examples from hadiths are given in order to shed light on the scientist's fruitful work.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о жизни имама аль-Бухари, который родился в Бухаре и был описан как султан хадисной науки во всем исламском мире. В статье рассказывается о путешествиях имама аль-Бухари по пути знаний и чудесных событиях, произошедших при его жизни. В статье на основе доказательств подчеркивается значение научного наследия Имама аль-Бухари и его значение в решении проблем, возникших в исламском мире. В целях обеспечения достоверности информации в статье мы ссылаемся на литературу, опубликованную в зарубежных изданиях, а также на литературу, написанную краеведами. Приводятся примеры из хадисов с целью пролить свет на плодотворную работу ученого.

**Kalit so‘zlar :** Imom al –Buxoriy , Imom Termiziy ,Al-Jome as –sahih , Samarqand , Buxoro , Makka ,Madina , hadis .

**Key words:** Imam al-Bukhari, Imam Tirmidhi, Al-Jame as-sahih, Samarkand, Bukhara, Mecca, Medina, hadith.

**Ключевые слова:** Имам аль-Бухари, Имам Тирмизи, Аль-Джаме ас-Сахих, Самарканд, Бухара, Мекка, Медина, хадисы.

**Kirish:** “Imom al-Buxoriy, to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy (810.21.7, Buxoro — 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘i) — islom olamining yirik mutafakkiridir. U muhaddislar imomi va hadis ilmining sultoni deb ham e‘tirof etilgan. [1]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya :** Mazkur maqolani yoritish jarayonida bir necha adabiyotlardan unumli ravishda foydalanildi. Jumladan Qudratillo Haydar Nuratoy tomonidan yozilgan “ Buxorodan taralgan nur “ asarida muallif Imom al Buxoriy hayotini badiiy yo‘sinda tarixiy ma’lumotlarga tayangan holatda o‘quvchilarga yetkazishga harakat qilgan. Olim hayotiga oid keyingi asarga to‘xtaladigan bo‘lsak , “ Imom Buxoriy “ nomli O‘zbekiston islom sivilizatsiya markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tatqiqot markazi tomonidan nashr ettirilgan risolada olimning dunyoga kelishi,, yoshligi, ilmiy faoliyati ,ustozlari ,shogirdlari, ilmiy ma’naviy me’rosi to‘g‘risida so‘z boradi. Asardagi ma’lumotlar ta’rixiy adabiyotlar orqali quvvatlantiriladi. Asarda o‘quvchi mutolla jarayonida olimning hayotini batafsil o‘rganib chiqa ola oladi. Ustoz A. Sagdullayev qalamiga mansub “ O‘zbekiston tarixi “ darsligida olimning hayot yo‘li uning asarlari haqida ma’lumotlar beriladi. ko‘proq A. Sagdullayev o‘zining asarida ko‘proq olimning ilmiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tadi. A. Sagdullayev ulamoning shogirdi At- Termiziy bilan bo‘lgan do‘stona munosabatlariga urg‘u berishga harakat qiladi.

**Muhokama va natijalar :** Imom al- Buxoriyning ustozlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularni sanab –sanog‘iga yetish dargumondir.

Nishopurlik Al-Hakimiyning yozishicha, ustozlarining soni 90 talar atrofida bo‘lgan. Ular: Yusuf Al-G‘aryobiy, Musa Al-Abasiy, Ibn Rohaviyh nomi bilan mashhur bo‘lgan imom Isxoq ibn Ibrohim kabilardir.

“Tarixi Bag‘dod “ kitobida zikr qilinshicha , Buxoriy : “ Men mingdan ko‘p shayxdan hadis yozb olganman “ , deb taklidlagan .[2]

Buxorodagi ustozlari - Muhammad Ibn Salom, Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Buxoriy, Abdulloh ibn Muhammad Musnadiy, Horun ibn Ash‘as Buxoriy kabi hadis ilmining ko‘zga ko‘ringan namoyondalari bo‘lgan.

Imom al Buxoriyning ustozlari soni va ularning kim ekanliklariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, olimning naqadar yuksak aql sohibi ekanligini anglashimiz mumkin.

Imom al- Buxoriyning shubhasiz hadis ilmiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Keling, endi biz buni raqamlar misolida ko‘rib chiqsak, Imom al Buxoriy butun umrini Payg‘ambarimiz alayhissalom hadislarini to‘plash, tizimga solish , ularni sahih va nosahihga ajratishga bag‘ishlagan. Hadis rivoyat qiluvchilarning hayoti, yashash joylari, tavallud va vafot etgan sanalari, o‘zaro muloqotlari jiddiy o‘rgangan.

Buyuk muhaddis oliti yuz mingga yaqin hadis to‘plab , shundan yuz ming “sahih” va ikkinyuz ming “ g‘ayrisahih” hadisni yoddan bilgan. U o‘zining bunday noyob qobiliyati va kuchli xotirasi bilan o‘z davridagi muhaddislarni hayratga slogan.

Imom – Buxoriy yoshlik davridanoq kitob yoza boshlagan . Manbalarda qayd etilishicha, u ilmiy faoliyati mobaynida yigirma to‘rtta asar yozgan.

Allomaning bebaho ilmiy merosi zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to‘la –to‘kis qamrab olgan .

Imom Qastaloniy bunday degan : “ Imom – Buxoriy asarlari quyosh yetgan joygacha yetib bordi . Dunyoning hamma yerini egalladi. Uning fazlini hech kim inkor qilolmaydi. Asarlarining eng ulug‘i “ Al jome as- sahih”dir . Ammo asar “ Sahihul Buxoriy”nomi bilan mashhur bo‘lgan . Bunday shuhrat topishiga sabab asarda Qur’oni karim tafsiri, fiqh va boshqa diniy ilmlar borasida sahih hadislar keltirilganidir.

Buyuk muhaddis bobomizning boy va serqirra me’rosida alohida o‘rin tutgan “Sahihul Buxoriy “ asari asrlar davomida dolzarbligini yo‘qotmadi. Aksincha , yuksak e’tirof etilib shu kungacha millionlab nusxada nashr ettirilmoqda.

Mazkur asar islom olamida Qur’oni Karimdan keyin eng asosiy manba vazifasini bajarib kelaypti. Ushbu kitob islom olamimidagi to‘rt asosiy mazhab

fiqhiy va sha’riy qoidalarini bajarishda ham eng muhim qo‘llanma hisoblanadi. Muallifning bu kitobni yozishga ko‘rgan tushi asosiy turtki bo‘lgan.

Bu haqida Imom al –Buxoriy “Tushimda Payg‘ambar sollallohu alayhi vassalamni ko‘rdim. Men u zotning huzurlarida turib, qo‘limdagi yelpig‘ich bilan Payg‘ambarimizni yelpib turgan ekanman. Bu tushning ta’birini ba’zi ta’birchilardan so‘raganimda, ular: “Sen payg‘ambar sollallohu alayhi vassalamni yolg‘ondan himoya qilar ekansan” dedilar. Bu tush meni asarni yozishga undadi” deb aytgan.

Imom al Buxoriy o‘z asari haqida: Men ushbu kitobni olti yuz ming hadis ichidan ajratib olib, o‘n olti yil ichida yozib tugatdim va uni o‘zim bilan Alloh o‘rtasida hujjat qilib qo‘ydim”, degan. Bu fikrlar haqiqatdan ham olimning naqadar ulkan ilohiy bilimga ega eka inson ekanligidan dalolatdir.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani »Al-jome’ as-Sahih«dir Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, Adab\_al-Mufrad, “At-tarix al-kabir”, “At-tarix as-sag‘ir”, “At-tarix al-avsat”, “At-tafsir al-kabir” “Birruvolidayn”, “Asmo as-sahoba”, “Kunyalar” va boshqalar. Ular orasidagi “Al-jome’ as-sahih” asari islom olamida Qur‘ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi manba hisoblanadi.[3]

Imom Buxoriyning hadislar to‘plash borasidagi qo‘ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko‘ra aniqroq bo‘lgani sababli “Al-jome’ as-sahih” asari “Eng ishonchli hadislar to‘plagan” nomiga sazovor bo‘lgan. Muhaddislar hadislarining roviylarini o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Asqaloniyning hisobiga ko‘ra “Al-jome’ as-sahih” dagi hadislar soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo‘shilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi.

Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX—XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa’yu ko‘chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan “Kitob al-favoid”

(“Foydali ashyolar haqida kitob”), “Al-Jome’ al-kabiyr” (“Katta tayanch”), “Xalq af’ol alibod”, («Alloh bandalari ishlarining tabiati»), «Al-Musnad al-kabiyr» («Katta tayanch»), «At-tafsir al-kabiyr» («Katta tafsir»), “Kitob al-xiba” (“Xayr-ehson haqida kitob”) va boshqa asarlarning ba’zilar bizgacha yetib kelmagan, ba’zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor.[4]

Buxoriyning boshqa asarlari orasida “Tafsir alQur’on” (“Qur’on tafsiri”) kitobini ham alohida ta’kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg’ambar (as) sunnatlari bo’yicha asosiy darslik, qo’llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o’lmas merosi el-yurti bag’riga qaytdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo’yicha 1225-yilligini nishonlash to’g’risida” gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o’rganish va targ’ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998-yil 23-oktabrda Samarqandda yubiley to’y-tantanalari bo’lib o’tdi. [5]

Alloma abadiy qo’nim topgan Chelak tumanidagi Hartang qishlog’ida ulkan yodgorlik majmui ochildi (qarang Buxoriy yodgorlik majmui Buxoriyning boy ma’naviy merosini chuqur o’rganish va keng targ’ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg’armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr; raisi Zohidillo Munavvarov). Jamg’armaning asosiy vazifasi Qur’oni karim va Buxoriyning “al-Jome as-sahih” i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o’tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000-yildan boshlab mazkur jamg’arma o’zining ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy “Imom alBuxoriy saboqlari” jurnallarini nashr etila boshladi.

**Xulosa:** Aslida imom Buxoriy haqida qancha yozishni istasak, dengiz siyohlari ham kamlik qiladi.

Zero, bu zotni qabrlarini ziyorat qilish istagida yonayotganlar anchagina. Farg’ona, Navoiy, Namangan kabi shaharlarni yaxshi tanimasalarda, ko’pgina chet el kishilari ham bu zotning hurmatlarida ko’hna Buxoro va Samarqand shaharlarini yaxshi biladi. Ko’pchilik ulamolar bu zot haqlarida ulkan asarlar yozishga kirishayotgan bir paytda kaminaning ikki og’iz so’zi dengizdan bir tomchidir aslida. Imom Buxoriyning ilmiy jasoratlarini va shuhratlari u kishining asarlari va hadis ilmiga qo’shgan buyuk hissalarini barchani ilm yo’liga kirishga va sobit qolishga undaydi: Vaholanki, Payg’ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi

vasallam o‘z muborak hadislarida shunday marhamat qiladilar: “Mening so‘zimni eshitib, uni anglab, yod olib, so‘ng uni boshqalarga o‘zi eshitgandek yetkazgan kishini Alloh yorlaqasin, yuzini yorug‘ qilsin” Alloh taolo va‘dalarga xilof qilguvchi zot emas, shu sababli ushbu hadisning himoyasi ila bu muborak ishning boshida turgan Hazrat imom Buxoriy va yozgan ulkan ilmiy meroslarini hamda bu manbalarni bizga yetkazganlarni ulkan ajrlar bulog‘iga burkab siylasin.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom\\_al-Buxoriy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Imom_al-Buxoriy)
2. <https://www.bukhari.uz/?p=25469&lang=oz>.
3. “ Imom Buxoriy “ nomli O‘zbekiston islom sivilizatsiya markazi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tatqiqot markazi .IBXITM-2022. 10-bet.
4. Ma’naviyat yulduzlari 2- nashr T. 2001. Ubaydulla Uvatov. 54-bet.
5. O‘zbekiston tarixi I-kitob. T.2021. Anatoliy Sagdullayev 471- bet.